



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 8-avgust, № 161 (9056)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

NAVOIY VILOYATIDAGI ULKAN IMKONIYATLAR KO'RSATIB O'TILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Navoiy viloyatida islohotlar natijadorligi va yangi rejalar muhokamasi yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Navoiy viloyati yer osti boyliklari, sanoati va qishloq xo'jaligi bo'yicha ulkan salohiyatli hudud. Bularning negizida so'nggi sakkiz yilda 8 milliard dollarlik 7 mingdan ziyod loyihalar amalga oshirilib, 73 mingta ish o'rni yaratilgan. Tadbirkorlar soni 10 mingdan 30 mingga ko'paygan.

O'zbekiston Prezidentining 2024-yil 12-dekabrda "Navoiy viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori imkoniyatlarni yanada oshirdi. Joriy yilning 6 oyida investitsiya hajmi 643 million dollarga yetdi, eksport 635 million dollardan oshdi. 550 million dollarlik yangi quvvatlar, 1 ming 140 ta savdo va servis majmualari ishga tushirildi.

Lekin hali foydalanilmagan manbalar juda ko'p. Davlatimiz rahbari Navoiy viloyatida yirik sanoat tarmoqlaridan tashqari yaylovlarni o'zlashtirish, chorvachilikni rivojlantirish, xizmat turlarini ko'paytirish bo'yicha imkoniyatlar bepoyon ekanini ta'kidladi.

Xususan, mamlakatimiz qazilma boyliklarining 20 foizi, yaylovlarning 43 foizi shu hududda joylashgan. Yirik korxonalar va qulay infratuzilma ko'plab yondosh tarmoqlarda talab yaratgan.

Joylardagi imkoniyatlarni yuzaga chiqarish uchun Navoiy viloyatida ham "Islohotlar shtabi" tuzildi. Yig'ilishda tadbirkorlarning takliflari asosida ishlab chiqilgan yangi loyihalar taqdimot qilindi.

Jumladan, G'ozg'on shahri, Nurota, Xatirchi, Navbahor va Uchquduq tumanlaridagi 8 ta kongra investorlar 566 million dollar sarmoya kiritishga tayyorligini bildirdi. Buning natijasida sanoat hajmi 2,5 trilyon so'mga, eksport 100 million dollarga ko'payadi.

Masalan, Nurota tumanida 750 million kubometr granit toshlari zaxirasi bor. Uni qayta ishlash uchun 50 gektar maydonda sanoat zonasi tashkil etish taklif qilindi.

Shu tumandagi 10 ta mahallada 5 mingdan ziyod xotin-qizlar kashtachilik bilan shug'ullanib, daromad topmoqda. Endi buni kengaytirib, 28 ta mahallada kashtachilik markazlari ochish rejalashtirilgan.

Ehtiyomand oilalarni quyosh panellari va ko'chma do'konlar bilan ta'minlab, kambag'allikdan chiqarish ko'zda tutilgan.

Viloyatdagi 3 million gektar yayloq qishloq xo'jaligi uchun katta imkoniyat. Masalan, qiziltepalik tadbirkor ming gektar yaylovda yomg'irlatib va tomchilab sug'orish texnologiyasini qo'llab, eksportbop ekinlar yetishtirmoqda. Endi chorvachilikni yo'lga qo'yib, sutni qayta ishlash tashabbusini bildirgan.

Umuman, viloyatda 1 milliard 600 million dollarlik qo'shimcha loyihalar shakllantirilgan. Ularning natijasida yana 10 ming ish o'rni, byudjetga 1 trilyon so'm tushum va 238 million dollarlik eksport imkoniyati paydo bo'ladi.

Davlatimiz rahbari loyihalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha topshiriqlar berdi.

Yirik va kichik korxonalar o'rtasida kooperatsiya yo'qligi ko'rsatib o'tildi. Tadbirkorlarni korxonalarga bog'lab, kafolati buyurtmani yo'lga qo'yish, kichik biznesning viloyatdagi ulushini oshirish vazifasi qo'yildi.

Yaylovlarga suv chiqarishga ko'maklashib, ulardan samarali foydalanish, oziq-ovqat mahsulotlarini ko'paytirish zarurligi qayd etildi.

Navoiy viloyatida o'rtacha ish haqi boshqa hududlardan 1,5 barobar yuqoriligi savdo va servisga talabni ham, taklifni ham rag'batlantiradi. Shunga munosib istirohat bog'lari va dam olish maskanlarini tashkil etish, turistlarni ko'paytirish, xizmatlar hajmini oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

O'ZA.



YUNESKO Bosh konferensiyasining Samarqandda bo'lib o'tadigan 43-sessiyasi oldidan

Jahonda shunday maskanlar borki, ularning nomini eshitsangiz, yuragingiz bir hapriqib tushadi, go'yo umringiz mazmuni shu bilan bog'liqdek, hayotingiz shu nom bilan payvastadek his qiliasiz. Samarqand — ana shunday tabarruk maskan.

Shu kunlarda dunyo bo'ylab tarqalgan xushxabar turkiy olamni to'liqlantirdi, yuraklarni g'ururga to'ldirdi, ko'ngillarga nur berdi. Bundan uch ming yil oldin bu muqaddas zaminda yirik shahar shakllangani Yer yuziga ovoza bo'ldi!

DUNYO SIVILIZATSIYASI POYTAXTI

Bu olamning jannati

Ilgari Samarqand viloyatining Urgut tumanidan Miloddan avvalgi XIII asrga, ya'ni bronza davriga oid qabrdan hayvon suyagidan yasalgan 3 ming yillik nay topilgan bo'lsa, endilikda O'zbekiston — Fransiya qo'shma ekspeditsiyasi a'zolari — tarix fanlari doktorlari, professorlar Muhammadjon Isomiddinov, Mutallibjon Hasanov hamda Lozana universiteti professori Klod Rapen tomonidan Ko'ktepa va Afrosiyobdan qo'lga kiritilgan materiallar asosida Samarqand shahri shakllanish davri 3 ming yilga teng degan xulosaga kelindi.

Qadimgi So'g'd, Xorazm, Baqtriya, Kushon, Parfiya, Eftalitlar davlatlari mehvari — Samarqand timsolida ko'plab tarix va haqiqat, afsona va rivoyatlar mujassam. Uning Rim, Afina, Bobil kabi qadim shaharlardan ham tarixi poydorroq.

Dunyo kakhshonida yulduzlar aro quyoshday charaqlab turgan betakror maskan Samarqand jahonga buyuk mutafakkirlar, olimlar, shoirlar va me'morlarni yetishtirib bergan Movarounnahrning oltin beshigidir. Bu ma'vo olimu fuzalo, ulug' allomalar,



sayyohlar tomonidan "Sharq bog'i erami", "Zamin gavhari", "Jahon gulshani", "Sharq marvardi" deb ta'riflangan.

"Podshohlar Samarqand tuprog'ini ko'zlariga surma kabi surar edilar", deb yozadi Abu Tohirxoja o'zining "Samarqand" kitobida.

"U dunyoda jannat bor, lekin bu dunyoning jannati Samarqanddir. Samarqand Yer yuzining marvardidir", deya ta'rif beradi Abu Rayhon Beruniyning zamondoshi Abu Mansur as-Sa'olbiy.

Bu diyorni "Al-madina al-mahfuza", ya'ni farishtalar qo'riqlovchi shahar,

deya ta'rifladi tarixchi Abdul Hakim Samarqandiy.

Samarqand... Bu muqaddas zaminda buyuk davlatga asos solgan, olamni tebratgan, nomi yetti iqlimga ketgan sohibqiron Amir Temur ruhi uyg'oq.

4-5

O'ZBEKISTON TAJRIBASI ILG'OR MODEL SIFATIDA QAYD ETILDI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi parlament delegatsiyasi Turkmanistonning Avaza shahrida bo'lib o'tgan BMTning Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha uchinchi konferensiyasi doirasida Yetakchi ayollar forumida ishtirok etdi.

Forumda gender tenglikni ta'minlash, ayollarning jamiyatdagi o'rni va huquqlarini kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Unda O'zbekistonda gender tenglikka erishish yo'nalishida olib borilayotgan tizimli islohotlar alohida tilga olindi. Konferensiya ishtirokchilari tomonidan O'zbekiston tajribasi boshqa mamlakatlar parlamentlari uchun ilg'or model sifatida qayd etildi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda bu yo'nalishdagi sa'y-harakatlar

Forum

2030-yilgacha mo'ljallangan milliy strategiya asosida olib borilmoqda hamda bu yondashuv BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga to'liq mos keladi.

Tadbir davomida oilaviy zo'raonlikka barham berish, ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qayd qilingan qonunchilik hujjatlari va ilgari surilgan tashabbuslar ham e'tirof etildi.

Senat Raisi forumdagi nutqida Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchi ayollari o'rtasidagi muloqotni kuchaytirish, amaliy hamkorlikni yanada samarali olib borish bo'yicha qator takliflarni ilgari surdi.

Xususan, ayollarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotdagi faolligini oshirish, ilg'or tajriba almashuvini yo'lga qo'yish, qarorlar qabul qilish jarayonida ularning ishtirokini kengaytirish hamda tadbirkor ayollar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash muhimligini ta'kidladi. Shu bilan birga, Avaza harakatlari dasturini mintaqaviy darajada amalga oshirish bo'yicha aniq takliflar bildirildi.

"Xalq so'zi".

GLOBAL TARAQQIYOTNING ADOLATLI ARHITEKTURASINI SHAKLLANTIRISHDA MUHIM TAKLIFLAR VA YUQORI DARAJADAGI HAMKORLIK

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 4-5-avgust kunlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha uchinchi konferensiyasida ishtirok etish uchun Turkmanistonda bo'ldi.

Aks sado

Mazkur konferensiya dengizga chiqish imkoni bo'lmagan mamlakatlarning muammolarini yengib o'tish va adolati kelajak uchun ushbu davlatlarning to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarishga yordam berish uchun yechimlarni topish va hamkorlikni o'rnatish imkoniyatini berishni maqsad qilgan.

Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan davlatlar uchun dengizga chiqish yo'lining yo'qligi ularning barqaror rivojlanishi uchun jiddiy to'siqlik qilmoqda. Xususan, logistika va tovarlar eksport-importida yuqori tariflar, transport yo'laklari va infratuzilmalarning o'tkazish imkoniyati cheklanishi, shuningdek, boshqa davlatlarning bojxonatransit siyosatiga bog'liqlik ko'rinishidagi bir qator muammolar yuzaga kelmoqda.

Bu esa mahsulotlarning tannaxini keskin oshiryapti. Davlatimiz rahbarining nutqida Markaziy Osiyo mintaqasining logistika xarajatlari mahsulotlar umumiy narxida 60 foizgacha yetishi, bu raqam jahondagi o'rtacha ko'rsatkichlardan bir necha barobar yuqoriligi ko'rsatilmoqda. Umuman olganda, dengizga chiqish imkoni bo'lmagan

davlatlarda transport xarajatlari qirg'oqbo'yi mamlakatlardagiga nisbatan 30 foiz yuqori hisoblanadi. Dengizga chiqish yo'lga ega bo'lmagan 32 mamlakatning umumiy aholisi 570 million kishi, ya'ni dunyo aholisining 7 foiziga teng bo'lsa-da, jahon savdosidagi ular ulushi 1 foizni ham tashkil qilmaydi.

Shu nuqtaiy nazardan, ushbu sohadagi dolzarb muammolarni yechish katta ahamiyat kasb etib, alohida yondashuvni talab qiladi.

Davlatimiz rahbari mazkur sohadagi umumiy tahdid va muammolarni yengib o'tishga qaratilgan muhim takliflarni ilgari surdi.

Avvalo, xalqaro transport yo'laklari va infratuzilmasini jadal rivojlantirish uchun muvofiqlashtirilgan harakatlarni amalga oshirish zarurligi ta'kidlandi.

Transport yo'laklari va multimodal transport tizimlari, raqamli infratuzilma va barqaror energiya aloqasi savdoni yaxshilash va xarajatlarni kamaytirish uchun muhim ahamiyatga ega. Mintaqaviy hamkorlik va xalqaro sheriklik ushbu infratuzilmaviy to'siqlarni bartaraf etishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bularni faqat birgalikda, ya'ni mintaqa, boshqa davlatlar harakatlari bilan amalga oshirsa bo'ladi.

2

YIL YAKUNIGA QADAR 32 TA LOYIHA ISHGA TUSHIRILADI



Gidroenergetika

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va investitsiya dasturlari doirasida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini jadallik bilan rivojlantirish, sohaga zamonaviy texnologiyalarni jalb etgan holda ishlab chiqarish quvvatlarini keskin oshirish, aholini uzuksiz tabiiy elektr energiyasi bilan ta'minlash bo'yicha jadal islohotlar olib borilmoqda.

Bu borada "O'zbekgidroenergo" AJ tomonidan yangi-yangi loyihalar hayotga tatbiq etilayotgani e'tiborga molik. Jamiyat tomonidan joriy yil birinchi yarim yilligi davomida amalga oshirilgan ishlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak,

natijalar ko'zga yaqqol tashlanadi. Jumladan, jamiyat tarkibidagi energiya hosil qiluvchi korxonalar tomonidan 3,6 mlrd. kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilib, belgilangan reja bajarilishi ta'minlandi.

4



2

O'ZARO ISHONCH VA HAMFIKRLIK —
MUAMMOLAR KALITI

Turkmanistonning Avaza shahrida bo'lib o'tgan BMTning Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha III konferensiyasidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqi xalqaro hamjamiyat diqqat markazida bo'ldi.

Munosabat

Davlatimiz rahbari o'z nutqida nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda muhim masalalar — adolat, teng imkoniyat, logistika, investitsiya va infratuzilmaviy taraqqiyot kabi dolzarb yo'nalishlarga e'tibor qaratilgan, jahon iqtisodiyotida teng ishtirok etish huquqi har bir mamlakat uchun kafolatlanishi kerakligini alohida ta'kidladi.

Nutqda konferensiyada muhokama qilinayotgan masalalar hayotiy muhim ahamiyatga ega ekan, chunki dengiz portlaridan jug'rofiy uzoqlik va bir necha mamlakat hududlarini kesib o'tish zarurati qator obyektiv muammolarni keltirib chiqarayotgani qayd etildi.

Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan mamlakatlarning umumiy tahdid va muammolarini bartaraf qilish maqsadida O'zbekiston Prezidenti aniq taklif va tashabbuslarni ilgari surdi hamda

BMT doirasida tranzit kafollatlari bo'yicha global bitim ishlab chiqish zarurligini ta'kidladi.

Shu bilan birga, O'zbekiston — Afg'oniston — Pokiston va Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston temir yo'l loyihalarini amalga oshirish orqali barqaror iqtisodiy makonni shakllantirish muhimligi aytiladi. Davlatimiz rahbari logistika integratsiyasiga yordam beradigan maxsus jam'arda tashkil etish tashabbusini ham bildirdi. Shuningdek, mamlakatlarning tranzit sohasidagi imkoniyatlarini xolis baholash maqsadida Zaiflik global indeksini ishlab chiqish va uni xalqaro moliyaviy dasturlarda hisobga olish taklif etildi. Raqamlashtirish, sun'iy intellekt va transchegaraviy sarmoya masalalari ham e'tibordan chetda qolmadi.

Bunday yondashuv O'zbekistonning dunyodagi raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan ichkil siyosatini namoyon etadi.

Mazkur konferensiyaning yana bir qimmatli jihati shundaki, unda

Prezidentimiz Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchilaridan tashqari boshqa xalqaro tashkilot rahbarlari va mamlakatlarning rasmiy delegatsiya a'zolari bilan ham o'zaro sheriklik munosabatlarining keyingi bosqichlarini muhokama qildi.

Jumladan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh kotibi Antoniu Guterish bilan o'tkazgan uchrashuvida qator muhim masalalar, xususan, global va mintaqaviy taraqqiyotning dolzarb masalalari, BMT Bosh Assambleyasining bo'lajak 80-yubiley sessiyasini o'tkazish, Markaziy Osiyoda integratsiyani chuqurlashtirish, Afg'onistonni mintaqaviy hamkorlik jarayonlariga jalb etish masalalari xususida fikrlashildi.

O'zbekiston Prezidenti tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar xalqaro iqtisodiy munosabatlarda adolat mezonlarini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, global muammolarni hamfiiklik va amaliy yechimlar orqali hal etishga da'vatdir.

Sayyora ABDIKARIMOVA,
Oliy Majlis Senatning
Agrar, suv xo'jaligi
masalalari va ekologiya
qo'mitasi raisi o'rinbosari.

Senat va yoshlar

TANLOV ISHTIROKCHILARINING
PARLAMENT YUQORI
PALATASIGA TASHRIFI

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan Prezident sovrini uchun tashkil etilgan "Xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktab" tanlovining respublika bosqichi ishtirokchilari Oliy Majlis Senatiga tashrif buyurdi.

Senatning Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi raisi Bahrom Abdullayev parlamentning qonun ijodkorligi jarayoni, ta'lim sohasiga taalluqli qonunlar hamda ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar haqida batafsil so'zlab berdi.

O'z navbatida, o'quvchi-yoshlar o'zlarini qiziqitirgan savollarga javob oldi.

Tashrif davomida o'quvchi-yoshlar parlamentning yuqori palatasi faoliyati bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Eslatib o'tamiz, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sovrini uchun "Xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktab" tanlovi 2021-yildan buyon o'tkazib kelinadi. Unda shu paytga qadar 14 — 16 yoshdagi 150 mingga yaqin o'quvchilar qatnashib, yuqori natija qayd etgan 70 nafar respublika bosqichi ishtirokchisi hamda 14 nafar pedagog Buyuk Britaniya va Germaniyaga ta'lim sayohatiga yuborilgan.

"Xalq so'zi".

MAHALLIY KENGASHLAR
FAOLIYATI RIVOJIDAGI
ZARUR HUJJAT

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida endillikda mahalliy Kengash raisi va hokim lavozimini yakka bir shaxs egallamasligining belgilangan muhim ahamiyatga ega. U, bir tomondan, vakillik hokimiyati va ijro etuvchi hokimiyat organlari mustaqil tizimining konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlab, mahalliy Kengashlar faoliyatini yangi bosqichga olib chiqadi. Ikkinchi tomondan, mahalliy miqyosdagi siyosiy-huquqiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy-ma'rifiy sohalaridagi dolzarb masalalarning joylarda to'laqonli hal etilishi uchun muhim zamin yaratadi.

Mulohaza

Ushbu konstitutsiyaviy norma talablarini amalga oshirish va joylardagi aholining manfaatlarini ta'minlashda mahalliy Kengashlar faoliyatini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-iyundagi Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmon bilan O'zbekistonda Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasi hamda 2030-yilga qadar ushbu konsepsiyani amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, mazkur Farmon mahalliy Kengashlar faoliyatining huquqiy mexanizmlarini mustahkamlash yo'lida o'ziga xos tarixiy ahamiyat kasb etadi. Davlat rahbarining bevosita mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishga oid maxsus Farmoni ilk marta sohaga doir ilmiy-amaliy yondashuv asosida uzoq muddatga mo'ljallangan konseptual hujjat sifatida mahalliy Kengashlar faoliyatini takomillashtirib, ushbu tuzilmaning saylovchilar, aholining keng qatlamlari va mahalla fuqarolar yig'inlari bilan hokimlik organlari o'rtasidagi o'ziga xos "ko'priki" sifatidagi vazifasining yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirishning maqsadi Farmonda belgilanganidek, "Kuchli Kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim" tamoyilini ro'yobga chiqarish orqali tom ma'noda viloyat, tuman va shaharlarda aholining manfaatlarini ta'minlash hamda joylarda masalalarni to'liq va samarali hal etadigan davlat organlari tizimini shakllantirish hisoblanadi.

Ushbu normativ-huquqiy hujjat bilan ilgari mahalliy ijro etuvchi davlat organlari ixtiyorida bo'lgan davlat ko'chmas mulkidan foydalanilgan uchun ijara to'lovining eng kam stavkalarini belgilash, dafn etish joylarini saqlash qoidalarini va mazkur xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha tariflar miqdorini tasdiqlash, ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiyalayotgan hamda mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va xaziraga qo'yish, yo'llarning ayrim qismlarida harakatlanish tezligini oshirishga yoki kamaytirishga (teginli yo'l belgilari o'rnatib) ruxsat berish kabi ba'zi vakolatlar xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga o'tkazildi.

Bu esa Kengashlar huquqiy maqomining takomillashtirish, muhim masalalar yuzasidan mustaqil qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini oshiradi va ijro organlarining mutlaq vakolatida bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatdagi vakolatlarining bevosita vakillik organlariga o'tkazilishi kabi muhim jarayonlarni kafolatlaydi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mazkur konsepsiya doirasida mahalliy Kengashlar faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilgan muhim tashkiliy-huquqiy masalalarni joriy qilib belgilangan bo'lib, u, o'z navbatida, ijro etuvchi organlar faoliyatini yuzasidan Kengash nazorati va boshqa funksiyalarni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Konsepsiyada mahalliy Kengashlar faoliyatida bir qancha takliflarni amalga oshirish belgilangan.

Xususan, viloyat, Toshkent shahri, tuman (shahar) hokimi o'rinbosarligiga nomzodlarni tegishli mahalliy Kengashlar doimiy komissiyalarida dastlabki tarzda muhokama qilish va Kengash sessiyalarida nomzodlar tomonidan o'z yo'nalishlari bo'yicha hududni rivojlantirish dasturlarini taqdim etish tartibini joriy qilish va mahalliy Kengashlarda deputatlar hamda jamoatchilik vakillari ishtirokida mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining ayrim muhim ijtimoiy masalalar yuzasidan axborotlarini eshittish bo'yicha "Kengash soati" institutini joriy qilish.

Shuningdek, mahalliy Kengashlar faoliyatining tashkiliy-moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash masalalarini mahalliy byudjet parametrlarida alohida ko'rsatish orqali mehnatga haq to'lash, rag'batlantirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash shartlarini mahalliy ijro etuvchi hokimiyat darajasidan past bo'lmagan holda belgilash. Ushbu o'zgarish muhim ahamiyatga ega bo'lib, tegishli hududdagi mahalliy byudjet parametrlarida Kengashlar faoliyati bilan bog'liq moliyaviy resurslarning aniq belgilanishini ta'minlaydi va ularning faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, mahalliy Kengashlarning Reglament va deputatlik odobi masalalari bo'yicha doimiy komissiyalariga Kengash qarori bilan lavozimga tasdiqlanadigan, tayinlanadigan, lavozimga tayinlanishida Kengash roziligi olinadigan mansabdor shaxslar tomonidan o'dob-axloq normalarini buzganlik bo'yicha ishlarni ko'rib chiqish huquqini berish. Bunday huquqning berilishi nafaqat doimiy komissiyalarning vakolatlari kengayishiga, balki ijro etuvchi organlar mansabdor shaxslarining vakillik organlari oldidagi mas'uliyatining oshirishiga ham xizmat qiladi.

Mahalliy Kengash qarorlarini qabul qilish jarayonlarining ochiqligini ta'minlash maqsadida fuqarolarga sessiya ishini bevosita kuzatish imkoniyatini yaratish. Ushbu yangilik keng jamoatchilik va OAVga mahalliy Kengashlar sessiyalarini "E-Kengash" platformasining mahalliy Kengashlar sahifalari orqali onlayn translyatsiya qilish amaliyotini tizimli yo'lga qo'yish imkonini beradi. Mahalliy Kengashlar faoliyatida ochiqlik va saylovchilarning Kengash sessiyalarini real vaqt rejimida kuzatishini ta'minlaydi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, konsepsiyaning ahamiyati shundaki, birinchidan, mahalliy vakillik organlarning faoliyatini ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan uzoq muddatli strategiya asosida yanada takomillashtiradi. Ikkinchidan, joylarda fuqarolar va aholining keng qatlamlari uchun muhim bo'lgan dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatdagi masalalarni hal etishda Kengash nazoratining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Uchinchidan, "Kuchli Kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim" tamoyilini ro'yobga chiqarish mexanizmlarini kafolatlaydi.

Shuhrat FAYZIYEV,
TDYU professori,
yuridik fanlar doktori,
xalq deputatlari Mirzo Ulug'bek
tumani Kengashi deputati.

GLOBAL TARAQQIYOTNING ADOLATLI
ARXITEKTURASINI SHAKLLANTIRISHDA MUHIM
TAKLIFLAR VA YUQORI DARAJADAGI HAMKORLIK

Ikkinchidan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida dengizga chiqish yo'lga ega bo'lmagan mamlakatlar uchun Tranzit kafollatlari to'g'risidagi global bitimni ishlab chiqish taklif etildi. Bu xalqaro munosabatlarda dengizga chiqish yo'lga ega bo'lmagan davlatlarning iqtisodiy rivojlanishini kafolatlaydigan hujjati nazarda tutuvchi muhim tashabbus.

Nutqda fundamental masala — adolat masalasiga to'xtalib, dengizga chiqish yo'lga ega bo'lmagan davlatlarga jahon iqtisodiyotida teng sharoitlarda ishtirok etish imkoniyatini ta'minlash zarurligi ta'kidlandi. Mazkur bitimning qabul qilinishi "global teng huquqlilikning muhim elementi bo'lgan rivojlanish huquqini" ta'minlaydi.

Uchinchidan, yirik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun moslashuvchan investitsiya vositalarini jalb qilish masalasi ilgari surildi. Bu borada BMT shafeligida Dengizga chiqish yo'lga ega bo'lmagan mamlakatlarning logistika integratsiyasiga ko'maklashish jam'armasini ta'sis etish taklif qilindi.

Dengizga chiqish yo'lga ega bo'lmagan davlatlarning barqaror rivojlanishiga moliyalashtirishdagi kamchiliklarni to'g'riqlash. Ichki resurslar yetishmovchiligi rasmiy yordam va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kabi tashqi moliyalashtirishning zarurligini ta'qozo etadi. Ushbu davlatlar investitsiyaviy jozibadorligi dengizbo'yi mamlakatlarga nisbatan pastroq bo'lganligi vaziyatini yanada murakkablashtiradi. Bu borada infratuzilma va rivojlanish ehtiyojlarini qondirish uchun innovatsion moliyalashtirish mexanizmlari va ushbu

yo'nalishdagi xalqaro hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchidan, dengizga chiqish yo'lga ega bo'lmagan davlatlarning Zaiflik global indeksini ishlab chiqish taklif etildi. Bu mazkur davlatlarning tranzit borasida cheklangan imkoniyatlarini xolis ko'rib chiqish va mavjud sharoitlardan kelib chiqib xalqaro moliyaviy-texnik dasturlarni kengaytirish va resurslarni samarali taqsimlashning ta'sirchan vositasiga aylanadi.

Mazkur indeks, xususan, geografik izolyatsiya, global bozorlarga cheklangan kirish va iqlim o'zgarishi ta'siriga moyillik kabi omillarni hisobga olgan holda dengizga chiqish imkoni bo'lmagan davlatlarning zaifligini o'lchashning standartlashtirilgan usulini taqdim etishi mumkin. Muhimi, ushbu indeks davlatlarning raqobatbardoshligi va ishbilarmonlik muhitini adolati baholashda hisobga olinishi kerakligi ta'kidlandi.

Beshinchidan, O'zbekistonda agrotarmoqni rivojlantirish uchun Innovatsion xabni yaratish masalasi ilgari surildi.

Dengizga chiqish imkoniyati bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar qishloq xo'jaligi va suv resurslari kabi iqlimga sezgir tarmoqlarga bog'liq bo'lgan sababli iqlim o'zgarishiga nisbatan alohida ta'sirchan hisoblanadi. Bu borada sohaga ilg'or texnologiyalar va innovatsiyalarni jalb qilish, ayniqsa, suvni tejash hamda oziq-ovqat xavfsizligi va qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini ta'minlashga oid loyihalarni ishlab chiqish, iqlimga moslashuvchanlik salohiyatini rivojlantirish mazkur tuzilma oldida vazifa sifatida turadi.

Oltinchidan, aniq takliflar ishlab

chiqishga davlatlarning yetakchi ekspertlari va "aql markazlari"ni faol jalb etish masalasiga e'tibor qaratildi.

Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan rivojlanayotgan davlatlar uchun ilm-fan, texnologiya va innovatsiyalar amalga oshiriladigan tarkibiy transformatsiyaning samaradorligi va iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Bu yerda, shuningdek, yangi texnologiyalardan barqaror rivojlanish yo'lida foydalanish uchun inson kapitali va tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirish zarur bo'ladi.

Konferensiyada ilgari surilgan takliflar nafaqat O'zbekiston va dengizga chiqish imkoni bo'lmagan davlatlar, balki butun dunyo o'lkalarini global taraqqiyotning yanada adolati arxitekturasini shakllantirishda ishtirok etishiga mustahkam zamin yaratadi.

Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha uchinchi konferensiya doirasida bo'lib o'tgan yana bir muhim tadbir — davlatimiz rahbariga Turkmanistonning "Hamkorlikni rivojlantirishga qo'shgan hisssasi uchun" ordenining topshirilishi bo'ldi.

Ushbu yuksak mukofotni mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stlik, yaxshi ko'shniçilik va strategik sheriklik munosabatlari yuksak darajaga ko'tarilganining natijasi sifatida ko'rishimiz mumkin.

Ushbu hamkorlik barcha yo'nalishda, xususan, siyosiy, parlamentlararo, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya va madaniy-gumanitar sohalarida jadal rivojlanib bormoqda. Tovar ayirboshlash hajmi 2019-yildagiga nisbatan 2 barobar oshib, o'tgan yili 1,1 mlrd. AQSh dollari

tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichni 2 mlrd. AQSh dollari ga yetkazish vazifasi qo'yilgan. Madaniy-gumanitar almashinuv doirasidagi tadbirlar yuqori darajada o'tkazilmoqda.

Olib borilayotgan pragmatik va yaxshi ko'shniçilikka asoslangan tashqi siyosat natijasida O'zbekiston va Turkmaniston parlamentlari orasidagi hamkorlik ham mustahkamlanib boryapti. Hozirgi kunda ikki mamlakat parlamentlari a'zolari o'rtasida nafaqat ikki tomonlama, balki Parlamentlararo Ittifoq, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti Parlament Assambleyasi va boshqa shu kabi xalqaro tuzilmalar doirasida faol muloqot yo'lga qo'yilgan.

Albatta, ushbu mukofotni O'zbekiston tomonidan Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlik va hamkorlikni ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan konstruktiv siyosat hamda mintaqa rahbarlarining umumiy sa'y-harakatlari e'tirofi sifatida ham qabul qilishimiz joiz.

Mazkur mukofot Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga ham Turkmaniston parlamenti va umuman, Markaziy Osiyo parlamentlari bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha katta mas'uliyat yuklaydi. Bu boradagi oliy darajada erishilgan kelishuvlarning ijrosini ta'minlashda parlament nazoratini kuchaytirish, o'zaro manfaat kasb etuvchi sohalar bo'yicha takliflarni ilgari surishda biz, parlamentariylar sa'y-harakatlarni yanada kuchaytirishimiz kerak.

Ulug'bek SHERMATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasining Xalqaro ishlar, mudofaa
va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi.

KO'ZI OJIZLAR KUTUBXONALARI O'GAYMI?

Oliy Majlis Senatning Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi a'zolarining Qashqadaryo viloyatida o'tkazgan o'rganishli hududdagi ko'zi ojizlar maxsus kutubxonalar faoliyatida o'z yechimini kutayotgan jiddiy muammolar mavjudligini ko'rsatdi.

Achchiq, ammo ochiq gaplar

Xususan, Kitob tumani ko'zi ojizlar kutubxonasiga tegishli bino tuman hokimining 2020-yil 5-iyundagi 49-f-sonli farmoyishiga asosan buzib tashlangan. Ustiga-ustak farmoyishda kutubxonani yangi bino bilan ta'minlash borasida aniq chora-tadbirlar belgilanmagan. Oqibatda oradan 5 yil o'tganiga qaramasdan tuman ko'zi ojizlar kutubxonasi o'z binosiga ega bo'lmay, 22-bolalar musiqa va san'at maktabining ikkinchi qavatida faoliyat yuritib kelyapti. Bu ko'zi ojiz kutubxonlar uchun qanchalik noqulaylik tug'dirayotganini tasavvur qilish qiyin emas.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonunning 23-moddasida respublika ijro etuvchi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari va tashkilotlar nogironligi bo'lgan shaxslarning barcha ijtimoiy infratuzilma obyektlariga moneliksiz kirishi uchun shart-sharoitlar yaratishi va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini oqilona

moslashtirish bo'yicha manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirishi shartliki belgilangan. Biroq Kitob tumani hokimligi mazkur talabga panja ostidan qaraganligi yaqqol ko'rinib turibdi.

Afsuski, tuman hokimligining qonun talablariga befarqligi bu bilan cheklanmagan. Aslida-ku, yuqorida aytib o'tilgan farmoyishning o'zi qonunga zid. Amaldagi qonunchilik hujjatlariga asosan tuman hokimi yaroqsiz deb topilgan davlat ko'chmas mulk obyektlarini buzib tashlash to'g'risida qaror qabul qilish vakolatiga ega emas. "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasi hamda Prezidentning 2017-yil 17-yanvardagi "Tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchun davlat mulki obyektlarini sotishni jadallashtirish va uning tartib-taomillarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish hududiy inspeksiyalari xulosasiga ko'ra yaroqsiz deb topilgan

davlat ko'chmas mulk obyektlarini buzish to'g'risidagi qarorlar viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari, shuningdek, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan qabul qilinadi.

Senat qo'mitasi tomonidan olib borilgan o'rganishlar viloyatda ko'zi ojizlar kutubxonalar bilan bog'liq ayanchli holat yagona emasligini ko'rsatdi.

Masalan, Dehqonobod va Koson tumanlarida ko'zi ojizlar kutubxonalarini xususiy tadbirkorlarga tegishli bo'lgan binolarga majburiy joylashtirilgan. Natijada tadbirkorlar tomonidan kutubxonalar faoliyatiga to'siqlar yaratilib, binoni bo'shatish talabi qo'yilmog'da. Muntazam ravishda elektr ta'minotidan uzish, xodimlarga bosim o'tkazish, hatto kutubxonaga eshiklarini quflab qo'yish holatlari kuzatilyapti.

Bu o'rinda qonun nuqtayi nazaridan tadbirkorni ham ayblab bo'lmaydi. Chunki "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafollatlari to'g'risida"gi Qonunning 18-moddasiga ko'ra tadbirkorlik subyekti mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mulk-mulkka o'z xohishiga ko'ra egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi.

Mahalliy hokimliklarning chiqargan

zo'rma-zo'raki qarorlari esa bir tomondan tadbirkorlarning faoliyatiga to'siq bo'lsa, ikkinchi tomondan nogironligi bo'lgan shaxslarning axborot olishiga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish imkoniyatini ham cheklamoqda.

Bundan tashqari, viloyatning Shahrisabz, Nishon, Qarshi, G'uzor tumanlari va Qarshi shahrida faoliyat yuritayotgan ko'zi ojizlar uchun mo'ljallangan maxsus kutubxonalar hozirgi kunda bir xonali, sig'imi cheklangan binolarda joylashgan. Ularda eng zarur infratuzilmaviy talablar — o'quv zali, maxsus jihozlar, tegishli shart-sharoitlar umuman mavjud emas.

Viloyat markazi va barcha tumanlardagi maxsus kutubxonalarda eng asosiy hisoblangan sanitariya va texnik shart-sharoitlar (suv tarmog'i, isitish tizimi, tabiiy gaz, kanalizatsiya va hk.) yaratilmagan. Aksariyati ta'mirlab holatga tushib qolgan. Bu esa nafaqat mehnat va gigiyena talablariga zid, balki jismoniy imkoniyati cheklangan fuqarolarga nisbatan davlat kafollatlarining buzilishidir.

Mazkur masala Senatning yaqinda bo'lib o'tgan to'qqizinchi yalpi majlisida qizg'in munozaralarga sabab bo'ldi. Majlisda hozir bo'lgan Madaniyat vaziri o'rinbosari Avaxxon Tojixonov ushbu holatdan vazirlikning xabari

borligini va uni bartaraf qilish vazifasi Qashqadaryo viloyati hokimligiga yuklatilganini aytish bilan cheklandi. Masala yuzasidan munosabati so'ralgan Qashqadaryo viloyati hokimining turizm, madaniyat, madaniy meros va o'rmoniy kommunikatsiyalar masalalari bo'yicha o'rinbosari Alisher Zokirov esa kutubxonalaridagi ahvoli o'nglash yuzasidan amalga oshirilgan ishlar borasida tayinli bir gap aytolmadi. Faqat ko'zi ojizlar jamiyatining moddiy-texnika bazasini yaxshilash uchun 100 mln. so'm ajratib berilganini aytib o'tdi xolos.

Vaholanki, butun bir viloyat miqyosida bu mablag' yetarli bo'larmikan? Bu savolga javob berishni mutasaddilarning o'ziga havola qilgan holda statistikaga murojaat etamiz.

Mamlakatimizda 2024-yilgi Davlat byudjetidan Madaniyat vazirligiga 1 trn. 100 mlrd. 445 mln. 300 ming so'm ajratilgan. Yil yakuniga kelib Senat tomonidan davlat xarajatlari 9,98 trn. so'mga kengaytirilgan va shuning doirasida Madaniyat vazirligi uchun moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va rag'batlantirish uchun yana 100 mlrd. so'm ajratilgan. 2025-yil byudjet taqsimotida esa ushbu vazirlik uchun 1 trn. 172 mlrd. so'm ajratish ko'zda tutilgan. Ko'ryapsizmi, shunga qaramasdan

vazirlikda ko'zi ojizlar uchun maxsus kutubxonalaridagi muammolarni bartaraf etishga mablag' topilmagan. Viloyat hokimligi esa shunchaki hisobot uchun 100 mln. so'm ajratib qo'ya qolgan!..

Qashqadaryo viloyati deganda, ko'z oldimizga har tomonlama katta imkoniyatlarga ega bo'lgan zamin keladi. Neft-gaz sanoati, paxta va g'allachilik, turizm sohalarida viloyatning salohiyati juda katta. Ammo ijtimoiy himoyaga muhtoj, yurug' dunyoni ko'rish baxtidan mahrum, nurga tashna, imkoniyatlari cheklangan insonlarga sharoit yaratish masalasi, afsuski, e'tibordan chetda qolmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 1-moddasida O'zbekiston ijtimoiy davlat ekanligi belgilab qo'yilgan. Ijtimoiy davlatning asosiy vazifalaridan biri esa aholining muhtoj qatlamlarini va ehtiyojmand shaxslarni moddiy qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilishdir.

Bosh qomusimizda belgilab qo'yilgan bu vazifalar davlat ijro hokimiyati organi bo'lmish Qashqadaryo viloyati hokimligiga taalluqli emasmi?

Bu savollarga ulardan javob kutib qolamiz.

Hamroqul QARSHIYEV
("Xalq so'zi").

IQTISODIY VA IJTIMOYIY YUKSALISHNING ASOSIY MEZONI

O'ZBEKISTONDA KUTILAYOTGAN UMR KO'RISH DAVOMIYLIGIDA BARQAROR O'SISH TENDENSIYASI KUZATILMOQDA

Bugungi globallashuv davrida inson kapitali rivojlanishining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri, shubhasiz, kutilayotgan umr ko'rish davomiyligidir. Mazkur ko'rsatkich nafaqat jamiyat sog'lig'i, balki iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlik darajasini ham o'zida aks ettiradi. Shu bois Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va boshqa xalqaro tuzilmalar tomonidan kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi doimiy ravishda tahlil qilib boriladi. Bundan esa mamlakatlar salohiyati va aholi farovonligini baholashda muhim mezon sifatida foydalaniladi.

Tahlil

So'nggi yillarda O'zbekistonda aholi turmush sharoitini yaxshilash borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning ijobiy samaralari asosiy iqtisodiy-ijtimoiy ko'rsatkichlardan hisoblangan aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmi, umumiy daromadlar ulushi, kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi, turmush tarzi, savodxonlik ko'rsatkichi kabi statistik raqamlarda o'z aksini topyapti.

Ma'lumot o'rinda aytish joizki, "kutilayotgan umr davomiyligi" deganda, tug'ilgan (0 yoshdagi) insonlarning o'rta umr ko'rish yillari soni tushuniladi. Ushbu ko'rsatkich asosiy demografik indikatorlardan biri bo'lib, har bir yosh guruhi bo'yicha alohida hisoblanadi. Shunisi muhimki, kutilayotgan umr davomiyligini hisoblashda quyidagi o'lim ko'rsatkichlari kelgusi yillarda ham o'zgarmasdan shunday saqlanib qolishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda mamlakatimizda doimiy aholining o'rta umr ko'rish davomiyligi 75,1 yoshni tashkil etadi. Quvonarlisi, bu borada so'nggi yillarda barqaror o'sish sur'ati kuzatilmoqda. Ushbu ko'rsatkich 2023-yilda 74,7 yosh, 2022-yilda – 74,3, koronavirus pandemiyasi davri, ya'ni 2020-yilda – 73,4, 2010-yilda – 73, 2000-yilda – 70,8, 1991-yilda esa 66,4 yosh bo'lgan.

Ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda umr ko'rish davomiyligi barqaror o'sish tendensiyasiga ega. Mazkur ko'rsatkich jinslar bo'yicha tahlil qilinganda, 2024-yilda erkaklar uchun o'rta umr ko'rish davomiyligi 72,9 yosh, ayollar uchun esa 77,3 yoshni tashkil etdi. Shahar joylarda 74,9 yosh, qishloq joylarda esa 75,1 yoshga teng bo'lgan.

BMT Aholi shunoslik bo'linmasining ijtimoiy va iqtisodiy masalalar bo'yicha departamenti ma'lumotlariga qaraganda, dunyo miqyosida umr ko'rish davomiyligi o'rta umr ko'rish davomiyligi 73,5 yil ko'rsatkichida turibdi. O'zbekistonda ushbu raqam 75,1 yosh ekanligini inobatga oladigan bo'lsa, mamlakatimizda umr ko'rish davomiyligi dunyo



bo'yicha o'rta umr ko'rish davomiyligi 1,6 yoshga yuqori ekanligi aydinlashadi. Garchi yurtimizda bu tendensiya o'sib borayotgan bo'lsa-da, hali ham rivojlangan mamlakatlar, masalan, Yaponiya (84,9 yil), Koreya Respublikasi (84,4 yil) bilan qiyoslanganda sezilarli farq borligi ko'zga tashlanadi. Bu esa umr ko'rish davomiyligiga ta'sir etuvchi omillarni chuqur tahlil qilish va ular asosida tegishli islohotlarni davom ettirishni taqozo qiladi. Shu maqsadda mamlakatimizda ko'p omilli regressiya tahlili amalga oshirildi.

Ta'kidlash kerakki, bu sa'y-harakatlar iqtisodiy, ijtimoiy yoki boshqa sohalaridagi jarayonlarni o'rganishda muhim vosita hisoblanadi. Bunda bog'liq o'zgaruvchi sifatida umr ko'rish davomiyligi, mustaqil o'zgaruvchilar sifatida esa aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi, aholining ichimlik suvi bilan ta'minlanganligi, har 10 ming aholiga to'g'ri keladigan shifokorlar soni, atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar, bolalarni kasalliklarga qarshi emlash, ro'yxatga olingan jinoyatlar soni, ro'yxatga olingan ruhiyat va xulq atvor buzilishi kasalliklari soni o'zgaruvchilari qabul qilindi. Tahlil natijalari har bir mustaqil o'zgaruvchining bog'liq o'zgaruvchiga ta'sirini baholash va umumiy modelning statistik ahamiyatligini aniqlash imkonini berdi.

Regressiya tahlillari aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi umr ko'rish davomiyligiga ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli ta'sir qilishini ko'rsatdi. Aholining ichimlik suvi bilan ta'minlanganligi ham umr ko'rish davomiyligiga ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi. U bir birlikka oshganda, umr ko'rish davomiyligi o'rta umr ko'rish davomiyligi 0,1 birlikka ortadi. Har 10 ming aholiga to'g'ri keladigan shifokorlar soni statistik jihatdan

deyarli ahamiyatli emas, deb topildi. Bu esa umr ko'rish davomiyligini oshirishda nafaqat shifokorlar soni, balki sog'liqni saqlash tizimi samaradorligi muhimligini ko'rsatadi.

Ro'yxatga olingan jinoyatlar soni umr ko'rish davomiyligiga salbiy ta'sir ko'rsatsa-da, bu ta'sir statistik jihatdan ahamiyatsizdir. Birinchi marta tashxisi aniqlanib ro'yxatga olingan ruhiyat va xulq atvor buzilishi kasalliklari soni umr ko'rish davomiyligiga salbiy va statistik jihatdan ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni ruhiyat va xulq atvor buzilishi kasalliklari soni bir birlikka oshganda, umr ko'rish davomiyligi o'rta umr ko'rish davomiyligi 0,02 birlikka kamayadi.

Mustaqil o'zgaruvchilardan uchitasi statistik jihatdan ahamiyatli bo'lib chiqdi: aholi jon boshiga

natijasi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning so'nggi o'n besh yildagi o'zgarishi dinamikasida yaqqol namoyon bo'ladi. Jumladan, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmi 2010-yilda 2 763,7 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib, ushbu ko'rsatkich 14 barabarga ko'paydi va 39 131,4 ming so'mga yetdi, aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi esa 2010-yildagi 2 192,8 ming so'mga nisbatan qariyb 11 karra oshib, 2024-yilda 24 111,9 ming so'mni tashkil etdi. Kambag'allik darajasi atvor buzilishi kasalliklari soni bir birlikka oshganda, umr ko'rish davomiyligi o'rta umr ko'rish davomiyligi 0,02 birlikka kamayadi.

Sog'liqni saqlash tizimi umr ko'rish davomiyligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biridir. Shu ma'noda, O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasidagi

Boshqacha aytganda, har 100 000 aholiga nisbatan yurak-qon tomir kasalliklari tufayli qayd etilgan o'limlar soni 2024-yilda 290,4 ga yetdi. Ushbu holat, 2020-yildagi pandemiyadan keyin keskin oshgan bo'lib, bugungi kunda pasayish tendensiyasi ketayotgani kishiga tasmin beradi. Shuningdek, nafas yo'llari kasalliklaridan vafot etganlar 4,7 foizni, o'sma kasalliklaridan 8,9 foizni va hazm qilish organlari kasalliklari sabab hayotdan ko'z yumganlar 4,4 foizni tashkil qildi.

2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra O'zbekiston nufusining o'rta umr ko'rish davomiyligi 75,1 yosh bo'ldi. Aholining 11,9 foizi mehnat yoshidan yuqori bo'lib, bu guruhda surunkali kasalliklar ko'proq uchraydi.

Jismoniy faollikning pastligi O'zbekistonda keng tarqalgan muammo bo'lib, aholining faqat 32 foizi muntazam jismoniy mashqlar bilan shug'ullanadi xolos. Vaholanki, umr ko'rish davomiyligi bo'yicha dunyoda yetakchi Yaponiya (84,9 yosh), Janubiy Koreya (84,4) va Shveysariya (84,1 yosh) singari mamlakatlarda sog'liqni saqlash tizimining yuqori sifati, toza ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi 100 foizga yetgani, eng asosiysi, sog'lom turmush tarzi keng namoyon bo'lishi muhim omil sifatida keltiriladi.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra sog'liqni saqlash sohasiga moliyaviy resurslarning nisbatan ko'p yo'naltirilishi umr ko'rish davomiyligini oshiradi. Misol uchun, O'zbekistonda sog'liqni saqlashga qilingan xarajatlarning YAIMdagi ulushi 7,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Turkiyada – 3,7, Ozarbayjonda – 4, Qirg'izistonda – 4,9, Xitoyda – 5,4, Belarusda – 6,7, Rossiyada – 6,9, Gruziyada – 7,3, Norvegiyada – 8, Italiyada – 9, Braziliyada – 9,1, Koreya Respublikasida – 9,4, Kanadada – 11,2 va Yaponiyada – 11,4 foizga teng. Bu ko'rsatkich dunyo bo'yicha o'rta umr ko'rish davomiyligi 9,9 foizni tashkil etadi.

Jahon mamlakatlari bilan taqqoslanganda, O'zbekiston umr ko'rish davomiyligi bo'yicha MDH orasida o'rta natijalarga ega bo'lsa-da, Yaponiya, Koreya Respublikasi va Shveysariya kabi rivojlangan davlatlardan hali orqada. Shu bois demografik barqarorlik, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, tibbiy xizmatlardan keng foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalaridagi sa'y-harakatlarni davom ettirish zarur. Zero, umr ko'rish davomiyligi nafaqat sog'liq, balki mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, O'zbekistonda kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi so'nggi yillarda barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Bu aholi salomatligi, sog'liqni saqlash tizimi islohotlari, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy turmush sharoitlarining yaxshilanishi bilan bevosita bog'liqdir.

Behzod HAMROYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Milliy statistika qo'mitasi raisi.

QASHQADARYO

TOMONLARDA

Baxshining mahorat maktabi

Dehqonobod tumanidagi 5-bolalar musiqa va san'at maktabida O'zbekiston xalq baxshisi Qahhor baxshi Rahimov nomidagi mahorat maktabi o'z faoliyatini boshladi.



Shu munosabat bilan tashkil etilgan tadbirda ta'kidlanganidek, Qahhor baxshi Rahimov ko'p yillik ijodida xalq baxshichilik an'analarini yangi bosqichga olib chiqqan atoqli san'atkor hisoblanadi. Uning rahbarligida

ochilgan maktab mamlakatimiz yosh ijodkorlari uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi.

Mahorat maktabida yoshlarga doira, dutor, tor kabi cholg'u asboblari ijro san'atidan tashqari doston aytish, sahna madaniyati, so'z ohangi va obraz yaratish kabi murakkab jihatlar ham mukammal o'rgatiladi. Darslar tajribali ustozlar, jumladan, Qahhor baxshi Rahimovning bevosita rahbarligida olib boriladi.

Istirohat bog'iga marhamat!

Yakkabog' tumanining Ayyirko'i mahallasidagi umumiy maydoni 10,5 gektar bo'lgan majmuda maxsus dam olish hududlari, zamonaviy o'yin maydonchalari, sun'iy havza, ochiq sahna, favvoralar hamda piyodalar yo'lagi va veloyolaklar barpo etiladi.

– Aholiga munosib dam olish imkonini yaratish – ustuvor vazifamiz, – deydi tuman hokimi Abidinabi G'iyosov. – Yangi istirohat bog'i ham tumanimiz ahli uchun hordiq, sport va madaniyat maskaniga aylanadi.



Soya doni – daromadli va foydali

Qarshi shahridagi "Asian golden oil" mas'uliyati cheklangan jamiyati viloyatdagi eng salohiyatli va barqaror faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalaridan biri hisoblanadi.



Ayni vaqtda qadar chorvachilik, parrandachilik yo'nalishlarida, shuningdek, in hamda o'simlik yog'i ishlab chiqarish kabi qator loyihalarni amalga oshirgan korxonaning istiqbolli quvvatlaridan biri – soya donini qayta ishlash liniyasi hisoblanadi. Bu yerda kuniga 50 tonnaga yaqin soya doni qayta ishlanmoqda.

– Bizda soyaning yog'dan tashqari shulxaga ham talab katta, – deydi MCHJ direktori Xolmamat Ro'ziyev. – Shu bois birinchi galda sifatli va barcha texnik talablarga javob beradigan shulxa olishga e'tibor qaratganmiz. Bir necha bosqichdagi saralash va ishlab chiqarish jarayonlaridan o'tib, tayyor holga kelgan mahsulot shartnoma asosida yurtimizdagi parrandachilik korxonalariga yetkazib berilmoqda.

Jahongir BOYMURODOV
("Xalq so'zi").

ISLOHOTLARNING AMALDAGI IFODASI

Mamlakatimizda aholini munosib uy-joy sharoitlari bilan ta'minlash, ularning huquqiy manfaatlarini himoya qilish, ayniqsa, turarjoy va mulk masalalarida adolatni qaror toptirish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Sir emas, yaqin-yaqingacha yosh oilalar o'z xonadonlariga ega bo'lish uchun uzoq vaqt ter to'kish, ancha mashaqqatlarni boshdan o'tkazishiga to'g'ri kelardi. Bunday murakkab jarayon natijasida tegishli ruxsatnomasiz qurilgan uy-joylar va ularga nisbatan egalik huquqini e'tirof etish masalasi ham g'alvaga aylanardi.

Egalik huquqi

Yillar davomida to'planib qolgan ushbu muammoni yechish maqsadida 2018-yilda Prezidentimizning tegishli Farmoniga muvofiq o'tkazilgan bir martalik umumdavlat aksiyasi doirasida 621 ming nafardan ortiq fuqarolarning o'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkasida tegishli ruxsatnomasiz qurilgan uy-joylariga nisbatan egalik huquqi e'tirof etilib, ularga kadastr hujjatlari rasmiylashtirib berildi.

Ta'kidlash joizki, Prezidentimiz tashabbusi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi uchun 119-sonli maxsus Farmon qabul qilingan bo'lib, uning asosida

shahar va tumanlarda kadastr hujjatlari mavjud bo'lmagan jami 27 590 ta turarjoyga egalik huquqi berildi. Ushbu turarjoylarga kadastr pasportlari tayyorlanib, davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

Ushbu ezgu ishlar izchil davom ettirilib, 2024-yil 5-avgust kuni O'zbekiston Respublikasining "O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi va u o'sha yili 8-noyabrdan kuchga kirdi.

Mazkur qonunning 19-moddasida Qoraqalpog'iston Respublikasining Jo'qorg'i Kengasiga, xalq deputatlari viloyatlar va

Toshkent shahar Kengashlariga yuborilgan ma'lumotlar va hujjatlar uch oy ichida sessiyalarida muhokamadan o'tkazilishi hamda yer uchastkasiga bo'lgan ijara huquqini hamda unda qurilgan bino va inshootga bo'lgan mulk huquqini e'tirof etish to'g'risidagi qarorlari qabul qilinishi belgilab qo'yilgan.

Shundan kelib chiqib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengasining navbatdagi beshinchi sessiyasida 267 nafar fuqaroning yer uchastkalariga ijara va turarjoylarga bo'lgan mulk huquqlarini e'tirof etish bo'yicha qaror qabul qilindi. Shu tariqa bugungi kungacha yuqorida keltirilgan qonun asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengasining sessiya qarorlari bilan jami 291 nafar fuqaroning mulk huquqini tan olish bo'yicha ro'yxat tasdiqlandi.

Statistik raqamlarga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasida 41 911 ta ko'chmas mulk obyekti hisobdan o'tkazilgan. Shundan joriy yilning 24-iyul holatiga ko'ra, 14 598 ta obyekt "E'TIROF" axborot tizimiga kiritildi. Hozirda

12 502 ta obyekt hujjatlari muhokama jarayonida. Shuningdek, 1 304 ta obyekt haqidagi ma'lumotlar "kadastr.uz" saytiga joylashtirilib, 305 tasi adliya organlari tomonidan o'rganilayotgan bo'lsa, 209 ta ko'chmas mulk qayta ko'rib chiqilmoqda. Ayni paytda 141 ta obyekt bo'yicha egalari qonunda belgilangan bir martalik to'lovlarini amalga oshirishi kutilyapti. Shu bilan birga, 14 ta ko'chmas mulkka nisbatan mulk huquqlarini e'tirof etish bo'yicha xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari qarorlari qabul qilish uchun kiritilgan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning amaldagi ifodasi bo'lgan ayni jarayon aholining huquqi himoyasini ta'minlaydi, odamlarda davlatga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamlaydi. Har bir fuqaroning o'z uyi, o'z mulkiga to'liq qonuniy asosda egalik qilishi – inson qadri ulug'langan jamiyatning bosh mezon.

G'ulomjon ESHNIYOZOV,
Qoraqalpog'iston Respublikasi
Jo'qorg'i Kengasi deputati.

DUNYO SIVILIZATSISIYASI



O'zining mahobatli o'tmishi, saodatli buguni va nurl kelajagi bilan Yer yuziga sayqal berib turgan Samarqand hamisha asrlar ardoq'ida, dunyo siyosatdonlari nighida bo'lib kelgan.

Bu tabarruk zamanga o'sha davr sultonlari, qirol va hukmdorlar poqadami yetgan. Azim kentda tinchlik bitimlari tuzilgan, vayronkor urush va bosqinchiliklarga barham berilgan.

Bugun tarix yana takrorlanmoqda. Dunyoning manaman degan davlatlari rahbarlari Prezidentimiz tashabbusi bilan qadimiy Afrosiyob shahristoni yaqinida bunyod etilgan "Boqiy shahar"ga tashrif buyurib, davr ziddiyatlariga birgalikda yechim izlamogda. Bu yerda oliy darajadagi uchrashuvlar bardavom bo'lmoqda. Xususan, joriy yilning noyabr oyida Samarqand shahrida YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi bo'lib o'tadi. 40 yildan ziyodroq davr mobaynida faoliyat ko'rsatayotgan bu nufuzli tashkilotning oliy darajadagi anjumani birinchi marta Parijda emas, Samarqandda o'tkazilishi tarixiy voqeelikdir.

Bugungi latofatga monand ulug'vor o'tmish

Camarqand arxeologiya instituti direktori Mo'minxon Saidovning qayd etishicha, qadim Samarqand G'arbda Vizantiya, Janubda Vavilon, Shumer, Hind, Sharqda Xuanxe, Yanszi, Shimolda Sahroi Nomad madaniyatini birlashtirishda oltin ko'priq vazifasini o'tagan. Ulug' ulamolar mangu qo'nim topgan Chokardiza qabristoni Madinadagi Boqiya va Makkadagi Muallo qabristonlari qatoridadi.

Qadimiy "Avesto" kitobida miloddan avvalgi X – VII asrlarda Samarqand So'g'd davlatining poytaxti sifatida keltiriladi. Xitoy yilnomalarida aytilishicha, VI – VIII asrlarda Samarqandda "Adolat uyi" nomli ibodatxonasi faoliyat ko'rsatgan. Unda turkiy tilda yozilgan qonunlar saqlangan bo'lib, barcha muammo shu qonunlar asosida hal qilingan.

Chili yozuvchisi Pablo Neruda shunday deb yozdi: "Men jahondagi deyarli hamma mamlakatlarda bo'lganman. Lekin O'zbekistonda mening do'stlarim ko'p. O'zining ajoyib madaniy va qadimiy yodgorliklari bilan dunyoga mashhur bo'lgan shahar, ayniqsa, Registan hayratda qoldirdi. Bu arxitektura ansambli musulmon Sharqida ko'rgan jamiki narsalarimdan oshib tushdi. U O'rta Osiyo

xalqlarining yuksak madaniyatidan dalolat beradi. Men bolalik chog'larimdan o'z qadimiy shaharda bo'lishni orzu qilardim. Orzuim ushahganidan behad xursandman. Odamlaringiz juda mehmondo'st!"

YUNESKOning 1987 – 1999-yillardagi Bosh direktori Federiko Mayor Samarqand haqida shunday yozgan edi: "Xayolot sari yetaklaydigan nomlar orasida tasavvurimizni rom etadigan bir nom bor, u ham bo'lsa Samarqanddir. Bu nom yorqin, serjilo, mushk-anbar, xayolot saroylari, karvonlar g'ulg'ulasi, bokira sas va anglanmagan hissiyotlar girdobidan hosil bo'lgandek go'yo... 1995-yilda men orzuni voqe'lik bilan qiyoslash imkoniga ega bo'ldim. Samarqand naqadar go'zal. Qay biri bilan – uning ulug'vor o'tmishi bilanmi yoki bugungi latofati bilanmi ko'proq hayratlanishingni bilmaysan..."

Buyuk Turon hududida necha minglab yillar davomida yuksak madaniyat gullab-yashnadi, qudratli davlatlar barpo etildi. Qadim zamondan ushbu zamindan o'tgan turli karvon yo'llari, millatlararo aloqalar, savdo-sotiq, hunarmandchilik, ilm-fan, adabiyot va san'at Buyuk Ipak yo'lining jon tomiri bo'ldi.

X asr o'rtalarida Samarqandda bo'lgan arab sayyohi Ibn Havqal: "Ko'm-ko'k daraxtlar, ajoyib saroylar, suv oqib turgan ariqlar... Samarqand – katta bozorlarga ega bo'lgan eng yirik shaharlardagidek, qator mahallalar, hammomlar, saroylar, karvonsaroylar joylashgan shahar. Unga qisman qo'rg'oshindan qilingan kanal suvi oqib kiradi. Bosh machit Shahristonda, undan pastroqda esa qal'a joylashgan", deb yozadi.

Har safar Samarqand zaminiga yo'limiz tushar ekan, bu muqaddas go'shaga, afsonalar maskaniga ilk marotaba kelayotganday hayajonlanamiz. Muqaddas qadamjolarni ziyorat qilib, bu yerda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik, obodonchilik ishlaridan hayratlanamiz.

1991-yilning bahori edi. Hali O'zbekiston mustaqil deb e'lon qilinadigan tarixiy sanaga besh oy vaqt bor, lekin davr charxpalagi shunga qarab shitob bilan olg'a bormogda. O'sha paytda bir necha xorij davlatlari olimlari tomonidan tashkil etilgan "Buyuk Ipak yo'li" xalqaro ekspeditsiyasi qatnashchilari Samarqandga kelib, mahobatli madrasalar muazzam minoralarini, tarixiy obidalarini, qo'shni Tojikistonga qarashli Panjakentdagi bir necha ming yillik sivilizatsiya qoldiqlarini ko'zdan kechirishgach, Urgutda ommaviy axborot vositalari vakillari uchun konferensiya o'tkazildi. Unda ekspeditsiya hamraisi,

pokistonlik olim Ahmad Hasan Doni shunday lutf qildi:

– Albatta, dunyoda muqaddas maskanlar, buyuk tarixga ega bo'lgan shaharlar ko'p. Lekin bu yerga kelib, haqiqatan ham, Samarqand dunyo sivilizatsiyasining markazi ekanini o'z ko'zimiz bilan ko'rdik...

Pokistonlik olimning yuksak e'tirofi, Samarqand sha'niga berilgan bunday baho yuragimizni to'qintlantirib yubordi, qarog'imizda yosh halqalandi...

Albatta, qaysi zamon va makonda bo'lmasin, Samarqand afsonaviy shahar sifatida tilga olingan. Bu ertakmonand kentga bir bor kelish, uni bir bor tavof qilish dunyo ahlining eng ezgu orzusi bo'lgan.

Sohibqiron Amir Temur oliy martabali mehmonlarni qabul qilish uchun Koningda ulkan sayilgoh barpo qildirdi. Vaqtiki keldi, Prezident Shavkat Mirziyoyev dunyoning turli mamlakatlardan tashrif buyuradigan oliy martabali mehmonlar uchun 200 gektardan ziyod maydonda "Boqiy shahar" majmuasini bunyod qildirdi. Bu yerda milliy hunarmandchilik ustaxonalar, milliy uslubdagi choyxonalar, Chorsu sharq bozori, xalqaro sayyohlik markazi faoliyat ko'rsatmoqda. Markaz hududida muhtasham, biri-biridan ko'rkam o'ndan ziyod inshootlar, karvonsaroy majmuasi, besh va to'rt yulduzli mehmonxonalar aziz sayyohlar xizmatida.

Samandardek Samar shahri

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov nomidagi Ilmiy-ma'rifiy memorial majmua rahbari, tarix fanlari doktori, professor Temur Shirinovning ta'kidlashicha, Mug' tog'idan topilgan so'g'diy hujjatlarda shahar Samarkant, qadimgi Yunon va Rim mualliflari asarlarida Marakanda, Marganda va Margandi shakllarida qayd etiladi. Arablar esa uni Samaroy deb ataganlar. Italiyalik sayyoh va adib Marko Poloning kitobida shahar Samarqand, Samakan va Samarkan shakllarida tilga olinadi. Forschada Samarqand deyilgan. Xitoyning qadimgi va O'rta asr yilnomalarida Samarqand shahar, viloyat va ularning hukmdorlari ham Kan yoki Samogan, Limogan, Sivingin va Saymaerkan shakllardagi atamalar bilan ta'riflanadi.

Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg'ariy va Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida Samarqand "Semirquand", ya'ni "semiz shahar" ma'nosini bildiradi, degan fikr bayon etilgan.

Bulardan tashqari, turli davrlarda bitilgan tarixiy manba va kitoblarda shahar nomi Samariana, Saramanka, Sakanna, Samangan, Samakiyon, Sumron, Shamarkan, Samaroy, Simroyat kabi shakllarda ham qayd etiladi.

Fanda Samarqand toponimining yuzaga kelishi va semantikasi borasida turli fikr va mulohazalar keltirilgan. Ayrim xorijiy toponomistlar shahar nomi sanskritda samariya – "yig'in" yoki "anjuman" so'zidan olingan degan fikrni aytgan. "Tarixi Tabariy", "Samariva" va "G'iyos ul-lug'ot" asarlarining mualliflari yozishlaricha, "Samar" – podshoning nomi bo'lib, "kand" esa turkiy tilda "shahar" degan ma'noni anglatgan. Bundan ko'rinadiki, Samarqand – Samar shahri demak.

Samarqand balandda joylashgan shahar ma'nosini anglatadi va "Samar" so'zi unda balandlikka ishora deb tushuniladi. Samarqand "Baland shahar" deb tarjima qilinadi, to'g'rirog' bo'ladi, deydi mutaxassislar. Samarqandning Chingizxon bosqinidan oldingi geografik o'rni – Afrosiyob bo'lib, Amir Temur tomonidan uning quyi qismida barpo

etilgan Samarqand nomi ana shu ko'hna kent – Afrosiyob bilan bog'lanadi.

Chunki miloddan oldingi VII va eramizning II asrlarida hukm surgan sak-skif turk davlatining asoschisi Afrosiyob bo'lib, u G'arb adabiyotida Maday Qora, turon adabiyotida Alp Er To'nga, fors-tojik adabiyotida Afrosiyob deb atalgan. Afra far – nur, go'zallik, majoziy ma'noda shohlarga xos dabdaba, shonu shavkat, haybat ma'nosida keladi. Afrosiyob – Alp Er To'nga Markaziy Osiyo, Ovro'padagi ko'pgina mamlakatlarni ishg'ol qilib, ularni Skif davlati ostida birlashtirgan mashhur podsho bo'lgan. XI asrda yashagan Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'otit-turk" asarini yozish uchun qabilalar yashaydigan o'lkalarni kezb chiqarkan, Alp Er To'ngaga bag'ishlangan marsiyalarni xalq og'zidan yozib oladi. Gerodot ma'lumotiga ko'ra, skif xoqoni Prototey, so'ngra uning o'g'li Maday 28 yil (653 – 625) shohlik qilgan Ossuriya tarixiga oid kitoblarda Madayning qaysi avlodga mansubligi ko'rsatiladi. Abu Rayhon Beruniy o'zining "Qonuni Mas'udiy" asarida Afrosiyobni tarixiy shaxs sifatida baholadi, uni Turon podshohi deb ko'rsatadi. Mahmud Koshg'ariy va Yusuf Xos Hojib Afrosiyobni turklarning ulug' xoni, u yo'lbars kabi kuchli, bahodir, deb yozadi.

– O'tgan ming yilliklar mobaynida Samarqand o'nlab vayronqarchiliklarni ko'rdi, – deydi tarix fanlari doktori, professor Muhammadjon Isomiddinov. – Shulardan to'rttasida Samarqand ahli ayovsiz qatli om qilindi, shahar fatarotga yuz tutdi. Goh olovlar



ichra qolib, yonib kul bo'ladi. Lekin u xuddi samandar qushidek yana qayta tug'ildi, takror va takror qad rostlayverdi. Samarqand Buyuk Ipak yo'li o'tishiga o'ng'ay bo'lgani uchun dastlab bu yerga Badaxshon la'lisi tog'li Pomir o'lkalaridan keltirilib, Yevropa va Chin mamlakatlariga olib ketiladi.

Yevropadan mo'yna va matolar, Chin o'lkasidan ipak va chinni buyumlari, qog'oz va turli mushk-anbarlar olib kelib, Sharq va Afrika mamlakatlariga olib boriladi. Samarqand karvonsaroylari hamisha karvonlar va turli millatga mansub savdogarlarga to'lib-toshardi, mahalliy mayda savdogarlar shu yerning o'zida sarmoyasiga yetarli mollarni xarid qilib savdo-sotiqni boshlab yuborardi.

Samarqand hududiga kirib chiqadigan karvonlar yaxshi qurollangan, jangchi askarlar tomonidan qo'riqlanardi. Karvonlar esa buning evaziga ularga yaxshigina haq to'lashardi. Shahar atrofidagi aholi Zarafshon va uning shoxobchalari hududlaridagi unumdor yerlarda dehqonchilik orqali tirikchilik qilar edi.

Zarafshonning ikki tarmog'i oqib o'tadigan, dushmanga zarba berishga o'ng'ay, strategik ahamiyatga ega bo'lgan hududda Afrosiyob degan dunyoga mashhur shahar bor edi. Uning atrofi qal'a devorlari bilan o'ralgan, tashqari tomondan dushman o'tmasligi uchun daryoning tabiiy o'zanidan tashqari xandaqlar bilan aylantirilgan edi. Bu xandaqlardan qishin-yozin Zarafshonning oqar suvi aylanib turardi. Suv sopol quvurlar orqali yer ostidan shaharga kirib, narigi tomondan chiqib ketardi. Bundan tashqari, dushman qamali paytida oziq-ovqat ta'minotini barqaror qilish maqsadida Afrosiyobning uch yo'nalishida yer osti yo'llari qurildi. Dushman qamali paytida shahar aholisi bir yil mobaynida hech narsaga zoriqmay, qiyinchilik ko'rmasdan himoyada turishi mumkin edi.

Shahar hududida juda ko'p butxonalar va otashgohlar mavjud bo'lib, yakka din yo'q edi. Ibadat paytida birov butxonaga, boshqasi otashgohga borib, o'z mehrobiga sig'inardi.

Aleksandr Makedonskiy istilosidan keyingi ming yillar davomida Afrosiyob qayta tiklanmadi. Biroq Samarqand shahri uning atrofida qad rostladi, shu nom bilan yana Buyuk Ipak yo'li manzillaridan biriga aylandi.

Ikkinchi Renessans o'chog'i

Zakariyo bin Muhammad al-Qazviniy tomonidan 1275-yilda yozilgan "Osor ul-bilod" va "Axbor ul-ibod" nomli asarlarda Samarqand qo'rg'onini Kaykubod o'g'li Kaykovus soldirgan, degan mazmundagi ma'lumot uchraydi.

Yana qator tarixiy manbalarda, jumladan, Najmiddin Umar ibn Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiyning "Al-qand fiy zikri ulamoi Samarqand", "Kitob al-qand tarixi Samarqand" nomli asarlarida bu maskan dunyoga mashhur olimu ulamolalar shahri, arablar bosqiniga qadar ham qariyb 2,5 ming yillik tarixga ega ekani haqida yoziladi.

...XIII asr o'rtalari. Samarqand yog'iy bosqinlaridan zada bo'ldi, xarobalikka yuz tutdi. Qal'alar, masjidlar, madrasalar vayron qilindi, shahar huvullab qoldi.

Shukrki, dunyo sahnida yangi qudratli kuch Amir Temur saltanati bunyod bo'ldi. Sohobqiron bobomiz dunyo mamlakatlardan mohir me'morlarni, qo'ligul hunarmandlarni Samarqandga olib keldi. Ular olamda tengsiz me'moriy mo'jizalarni barpo qildi. Niliy gumbazlar, osmono'par minoralar, ularda aks etgan, har biri o'z mazmuniga ega bo'lgan yorqin ranglar, naqshu nigorlar xalqimizning bag'rikengligi, mehri daryoligi, xayr-saxovatligi timsolidi.

Amir Temur davrida Samarqandda jome masjidi, Ko'ksaroy, Bo'stonsaroy, Amir Temur maqbarasi, Ruhobod, Shohi Zinda kabi me'moriy majmualar bunyod etildi. Jahon ilm-fan va madaniyatining yuksalishi jarayonida Samarqand ikkinchi Renessans o'chog'i sifatida e'tirof etildi.

Shahar atrofi Ohanin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh, So'zangaron va Feruza kabi nomlar bilan yurtiluvchi olita darvozali mustahkam qal'a devori bilan o'rab chiqildi. O'sha davrda yangidan qad ko'targan Samarqand shahrining g'arbiy qismida davlat mahkamasi uchun Arki Oliy qurildi. Bu yangi arka Amir Temurning qarorgohi Ko'ksaroy va Bo'stonsaroy bunyod qilindi. Bu inshoot to'rt qavatli bo'lib, gumbazlari hamda devorlari zangori koshinlar, naqshinkor va guldor parchinlar bilan qoplangani uchun Ko'ksaroy deb nomlangan.

Mashhur muarrix Sharafuddin Ali Yazdiy Samarqand markazida qurilgan muhtasham jome masjidi haqida "Zafarnoma" tarixiy-badiiy

YIL YAKUNIGA QADAR 32 TA LOYIHA ISHGA TUSHIRILADI

Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda texnik gidroenergetika salohiyati yiliga 27,4 mlrd. kVt-soatni tashkil etadi. Hozir mavjud salohiyatning taxminan 25 foizidan foydalanilmoqda.

Gidroelektr stansiyalar (GES) barqaror kunlik elektr energiyasini ta'minlashning samarali vositasi, narxi boshqa manbalarga qaraganda ancha arzon va ekologik tozaligi bilan ham ahamiyatlidir. Shu bois Prezidentimiz tomonidan 2024 – 2028-yillarda gidroelektr stansiyalar quvvatlarini 6 ming megavattga (2,7 barobar), o'rtaacha yillik ishlab chiqarish hajmini 17 – 19 mlrd. kVt-soatga yetkazish bo'yicha besh yillik dastur ishlab chiqish hamda buning uchun sohaga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish zarurligi alohida aytilgandi.

Shu nuqtayi nazardan, "O'zbekgidroenergo" AJ gidroenergetikani rivojlantirish strategiyasiga muvofiq, istiqbolli loyihalarni amalga oshirish hisobiga qo'shimcha quvvatlarni yaratib, 2028-yilga borib umumiy elektr energiya ishlab chiqarish quvvatlarini 6 ming megavattga yetkazish va bu orqali o'rtaacha yillik ishlab chiqarish quvvatini qariyb 19 mlrd. kVt-soat yoki 3 baravar oshirish uchun zaruriy choralarini ko'rmoqda.

– 2025-yil gidroenergetika uchun yuksalish davri bo'lmoqda, – deydi "O'zbekgidroenergo" AJ boshqaruvi raisi o'rinbosari Farrux Nurullayev. – Joriy yil davomida jamiyatimiz tomonidan 405 mln.



dollarlik, yillik ishlab chiqarish quvvati 912,0 mln. kVt-soatga teng 32 ta loyiha ishga tushiriladi. Bu kabi ko'rsatkich mamlakat sanoatining hech qaysi bir yo'nalishida ilgari kuzatilmagani.

Xususan, I yarim yillikda Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida quvvati 16 MVt, yillik o'rtaacha ishlab chiqarish quvvati 69,6 mln. kVt-soatga teng "Zarchob-3" kichik GES, Samarqand viloyatida 2 ta loyiha, shundan – jami quvvati 1,5 MVt, yillik ishlab chiqarish quvvati 7,3 mln. kVt-soat "Aylanma Darg'om" kanalida mikroGES-2, GES-3, kichik GES foydalanishga topshirildi. Jizzax viloyatida jami quvvati 0,55 MVt, yillik ishlab chiqarish quvvati 5,7 mln. kVt-soat bo'lgan Jizzax suv ombori qoshida mikroGES ishga tushirildi.

Yana bir muhim jihat. Jamiyat bu bilan cheklanib qolmasdan, hududlarda kam suv va past bosimda ham elektr energiya ishlab

chiqarish qobiliyatiga ega mikroGESlarni, jumladan, Surxondaryo viloyatida umumiy quvvati 150 kilovattga teng 8 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus va Xo'jayli tumanlarida jami quvvati 145 kilovattga teng 5 ta kinetik turdagi turbinalni mobil mikroGESlarni ishga tushirdi.

Bu hali hammasi emas. 2025-2026-yillarda Chorvoq suv omborining yuqori qismida Xitoy Xalq Respublikasining beg'araz ko'mak grant mablag'i evaziga umumiy quvvati 20 MVt, yillik ishlab chiqarishi 50 mln. kVt-soat teng 4 ta shamol stansiyasi qad rostlaydi hamda aholini elektr energiyasi bilan ta'minlash ko'rsatkichi yanada oshadi. Natijada AJ tarkibidagi umumiy GESlar soni 100 dan ortishi rejalashtirilgan.

Ta'kidlash joizki, muhandislik ishlari, transport-kommunikatsiya va geostrategik jihatdan muhim ahamiyatga ega, noyob

gidroagregatlar ishlab chiqarish zavodi – "UzHydroPower" QKning ishga tushirilishi nafaqat yurtimizda, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi hayotida ham muhim voqeadir.

Mazkur korxonada respublikadagi birinchi milliy GES bo'lishi kutilayotgan "Norin GESlar kaskadi"ga o'zimizda ishlab chiqarilgan mahalliy gidroagregatlar yetkazib berilishi yo'lga qo'yildi. Shu bilan bir qatorda, gidroenergetika sohasida amalga oshirilayotgan tizimli ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish niyatida zarur paytda xorijiy investitorlarga "tayyor loyihalar"ni ijroga qaratish uchun taqdim etish maqsadida jamiyatda "Loyihalar fabrikasi" faoliyati yo'lga qo'yildi.

Bu yerda hozirga qadar umumiy quvvati 3,2 gigavattga teng 50 ga yaqin loyihalar ustida ish olib borilib, kelgusida gidroenergetika quvvatini yanada oshirish uchun zamin hozirlanmoqda. Bugungi kunda "Loyihalar fabrikasi"da umumiy quvvati 408 MVt teng 9 ta loyiha ijro uchun tayyor holatda bo'lsa, umumiy quvvati 2 737 MVt teng bo'lgan 20 ga yaqin istiqbolli loyihalar doirasida manzilli ishlar olib borilmoqda.

Mazkur loyihalarning hayotga muvaffaqiyatli tatbiq etilishi natijasida yaqin kelajakda gidroenergetika sohasida ishlab chiqarish salohiyati yiliga qariyb 20 mlrd. kVt-soatga yetadi.

Rahim SPERQULOV ("Xalq so'zi").

YARMARKA

ENDI GO'SHT NARXI ARZON!

Ma'lumki, "Xalq so'zi" gazetasining shu yil 11-iyul sonida "Go'sht arzon bo'ladi, ammo..." sarlavhasi ostida maqola e'lon qilingan edi. Unda yurtimizda go'sht iste'moli ortishi barobarida narxi ham ko'tarilib borayotgani tahlilga tortilgan edi. Maqolada ko'tarilgan masala yuzasidan mutasaddilar, turli soha kishilarining munosabati, taklif va mulohazalari kelmoqda.

Quvonarlisi, ko'pchilik go'sht rostdan ham arzon bo'larmikin deya ishonqiramay turgan bir paytda Toshkent shahar hokimligi xayrli ishga qo'l urdi: poytaxt bozorlarida arzonlashtirilgan narxlarda go'sht sotila boshladi.

Darhaqiqat, keyingi paytda Toshkent shahri aholisi va mehmonlarini sifatli va hamyonbop oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Ushbu sa'y-harakatlar doirasida bozorlarda go'sht mahsulotlari savdo shoxobchalari ko'paytirildi, mavjudlari esa kengaytirildi. Natijada go'sht narxi barqarorlashdi.

Ayni paytda poytaxtimizning beshta yirik bozori, jumladan, Chorsu, Yunusobod, Farhod, Aviasozlar va Qo'lyiq bozorlarida mol go'shti 80 ming so'm, Belarusan keltirilgan mol go'shti 70 ming so'm, mahalliy qo'y go'shti 90 ming so'm, muzlatilgan qo'y go'shti esa 65 ming so'mdan sotilmoqda.

– Bu ko'pchilikni, ayniqsa, keksalarni, ko'p bolali oilalarni xursand qildi, – deydi Yunusobod dehqon bozoridagi veterinariya-sanitariya ekspertiza laboratoriyasi

mutirasi Sevara Ibragimova. – Darvoqe, mahsulotning sifatiga kafolat beraymiz. Chunki go'sht va go'sht mahsulotlari chuqur tahlildan o'tkazilmoqda.

Toshkent shahar hokimligidan ma'lum qilishlaricha, markaziy dehqon bozorlaridagi jami 624 ta savdo rastasiga arzonlashtirilgan, yuqori sifatli go'sht mahsulotlari qo'yilgan. Bu bozorga kirib kelayotgan jami go'shtning 30 foizdan ko'prog'ini tashkil etadi. Yaqin kunlarda arzonlashtirilgan go'sht rastalari yana 84 taga ko'paytirilib, ularning jami soni 708 taga yetkaziladi.

– Ko'rib turganigizdek, narxlar ancha past. Bu shahar hokimi va tegishli idoralarning o'zaro hamkorlikdagi sa'y-harakatlari mevasidir. Narxlarini barqarorlashtirish, bozorni sifatli chorvachilik mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash borasidagi ishlar izchil davom ettiriladi, – deydi poytaxt veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i Otabek Safarov.

Abdunabi ALIQULOV ("Xalq so'zi").

POYTAXTI

solnomasida shunday yozadi: "Amir Temur Ko'ragon Hindistonni olgandan keyin (u yerda o'lja olingan) oltin, inju va qimmatlik toshlarni to'qson bir filga yuklab olib keltirdi va istadikim, poytaxti bo'lgan firavsmo'nd Samarqandda bir jome bino qilg'ay... 801 hijriy, 1399 milodiyda kuchli va tez ishli ustalarni dunyo tevarigidan yig'ib ishini boshladi. Ozarbayjon, Eron, Hindistondan 500 toshlarosh masjidning o'zida ishlar, boshqalari esa tog'da tosh yo'nib, shaharga jo'natish bilan band edi.

Va shunday bir masjidi jome bino qildiki, sahnining sof ishlanishi hushyor dillardan ham munavvarroq va baland kunguralarini oy muqarnasidan bezakli, firuzasimon koshinlari lojuvard, osmonrang, oftobga jiloli zarnigor naqshlari bilan go'zal charx gumbazlariga barobar, baland ovozalik darvozasi, kimki bu yer (Xonai Ka'ba)ga kirdi, omonlik topdi, oyatining kaliti bilan ochildi. Har bir yuksak toqlari falak peshtoqida qad ko'tardi".

Sohibqiron o'zi qadami yetgan mamlakatlardan ko'plab nodir kitoblarni Samarqandga jo'natgan. Bu kitoblarni uy'g'ur, fors, eron, pusht, arab tillarida bo'lgan. Temur kutubxonasi avval Keshda, so'ng Samarqandda bo'lgan. 1580-yildan so'ng bu kutubxona Buxoroga ko'chirilgan. Ularning aksariyati oqoshsho bosqinchilari tomonidan tashib ketilgan.

1979-yili Yaponiyada o'tkazilgan xalqaro konferensiyada Yaponiya Fanlar akademiyasining prezidenti Sapporo Miyaki: "Samarqand - nafaqat jahon sivilizatsiyasining markazi, balki Mirzo Ulug'bek asos solgan falakiyot ilmining ham markazidir", deya e'tirof etgan edi.

Ma'lumki, miloddan avvalgi V asrda yunon faylasufi Afloton tomonidan asos solingan falsafa maktabi akademiya deb atalgan. Xuddi shunday ilmiy muassasa XV asrda Samarqandda Mirzo Ulug'bek tomonidan tashkil qilindi. Bu haqda faylasuf va tarixchi olim Volter shunday yozadi: "Movarounnahrda Amir Temurning o'rniga taxtga chiqqan mashhur Ulug'bek Samarqandda birinchi akademiya asos soldi. Yer kurrasini o'lchashni buyurdi va astronomik jadvallarni tuzishda ishtirok etdi".

Mirzo Ulug'bek boshchiligidagi Samarqandda qurilgan madrasa "Dorul hikma" ("Donishmandlar uyi") nomi bilan mashhur bo'ldi va o'z atrofiga turli fanlar bo'yicha 100 nafardan ortiq olimlarni yig'idi. "Dorul hikma" olimlari riyoziyot, ilmi hayot, handasa, jug'rofiya, tarix, ilmi nujum, tibbiyot, musiqa, mantiq, aruz, ilmi hisob, Qur'oni karim, hadis, fiqh, adab, ilmi hikmat, ilmi kalom, arab tili kabi fan sohalarida asarlar yaratdi.

O'z davrida yagona qudratli saltanat barpo qilgan Amir Temur shaxsi bugun Vatan va millat timsoli, ma'naviy qudrat ramziga aylandi. Sohobqiron yurtida bugun olib borilayotgan ulkan islohotlar, bunyodkorlik ishlarida Amir Temur bobomizning ruhi-poki bizga doimo hamnafasdir.

Ko'hna tarixning yangroq sadosi

Yaqinda bo'lib o'tgan xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining navbatdagi sessiyasida O'zbekiston Fanlar akademiyasi, Samarqand arxeologiya instituti va xalqaro hamkor tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalari taqdim etildi. Unda keltirilishicha, Afrosiyob va Ko'ktepa hududlarida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida topilgan osoriyotlar, ilmiy ma'lumotlar Samarqand shahrining ilk urbanizatsiyasi miloddan avvalgi II minginchi yillik oxiri va I minginchi yillik boshlariga taalluqlidir. Olib borilgan qazishma

ishlari Samarqandning yoshi 3000-yil ekanini tasdiqlamoqda. Sessiyada ushbu ma'lumotlarni tegishli vazirlik va idoralarga taqdim etish bo'yicha qaror qabul qilindi.

Joriy yil boshida Afrosiyob yodgorligining bir necha nuqtasida jumladan, ark va shahriston qismida, ya'ni mudofaa devori yaqinida keng ko'lamdagi qazuv ishlarini olib borildi, - deydi Mo'minxon Saidov. - Samarqand shahrining yoshiga aniqlik kiritishga mas'ul guruh Afrosiyob va Ko'ktepa yodgorliklarida, hozirgi Ko'ksaroy maydoni o'rnida bo'lgan Amir Temur arkida fanlararo tadqiqot usullarini qo'llash orqali kompleks qazuv ishlarini amalga oshirdi.

Aytish kerakki, shaharning xronologiyasi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini uzoq yillardan buyon davom etib kelmoqda. Ayniqsa, Vatanimiz mustaqillikka erishganidan keyin shu paytgacha xaspo'shlanib kelinayotgan tariximizni tiklash maqsadida fransiyalik arxeologlar bilan hamkorlikda Samarqand shahridan 25 kilometr uzoqlikdagi Ko'ktepa yodgorligida Afrosiyob shahristonida qazishma ishlar olib borilib, shu paytgacha ma'lum bo'lmagan qimmatli ma'lumotlar topildi. Va shu asosda 2000-yillarda O'zbekiston - Fransiya o'shma ekspeditsiyasi yangi ma'lumotlarni aniqladi va Samarqandning yoshi 2750-yil, deb belgilandi.

Samarqandning umumbashariy madaniy taraqqiyot tarixida tutgan o'rnini hisobga olinib, 2001-yilda YUNESKO tomonidan "Samarqand - madaniyatlar chorrhasi" sifatida jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritildi. 2007-yil 25-avgustda Samarqand shahrining 2750-yillik yubileyi nishonlandi.

Qayd etish lozimki, qazishma ishlarini tahlil qilish jarayonida mamlakatimiz va xorij olimlari bilan maslahatlashuv yig'ilishlari o'tkazildi. Jumladan, O'zRFA Milliy arxeologiya markazi professori Abdulhamid Anorboev, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov nomidagi Ilmiy-ma'rifiy memorial majmua rahbari Temur Shirinov, O'zbekiston Milliy universiteti professori Rustam Sulaymonov hamda fransiyalik, rossiyalik mutaxassislar bilan ilmiy davra suhbatlari tashkil qilindi. Bundan tashqari, barcha xorijiy mutaxassislar qazishma jarayoni va qo'lga kiritilgan ilmiy ma'lumotlar bilan tanishtirildi.

Miloddan avvalgi VIII-VII asrlarga kelib, So'g'd markazi - Ko'ktepadan hozirgi Afrosiyob platosi o'rniga ko'chadi. Urbanistik markazlarim bunday ko'chishi tarixiy jarayonda ko'p hollarda tabiiy va ijtimoiy omillar bilan bog'liq bo'lgan. Bunday o'zgarishlarga turki bergan asosiy sabablar urushlar yoki bosqin xavfi, migratsiya jarayonlari, suv resurslarining tanqisligi yoki irrigatsiya tizimining tanazzuli, keskin iqlimiy o'zgarishlar hisoblanadi.

So'g'd markazining ko'chirilishi davlatning ahamoniylar imperiyasi tarkibiga kirgan yoki undan sal oldinroq davrda sodir bo'lgan. Bu holat olimlarimiz tomonidan Ko'ktepaning dashtga yaqin, relyefda deyarli ajralib turmaydigan hududda joylashgani, unga nisbatan doimiy bosqin xavfining mavjudligi hamda uzoq muddat yashash uchun xavfsizlik yetarli darajada bo'lmaganligi bilan izohlanadi. Shu bois yangi shahar o'rnini nafaqat strategik jihatdan, balki ma'muriy va madaniy-ideologik boshqaruv markazi sifatida ham faoliyat yuritishi uchun mos bo'lishi talab qilingan. 23 gektar maydonga ega Ko'ktepadan farqli ravishda undan deyarli 10 barobar katta, ya'ni 220 gektarlik tashkil qiladigan Afrosiyob platosi mana shu talablarga to'liq javob beradigan, tashqi dushman hujumlaridan



Suratlar "Xalq so'zi" fotomajmasidan olingdi.

tabiiy himoyalangan, strategik jihatdan qulay va uzoq muddatli yashash imkonini ta'minlay oladigan joy bo'lgan. Plato hududi dasht zonalariga chegaralardan bir necha o'n kilometr masofa uzoqlikda joylashgan. Bunga qarama-qarshi ravishda, Ko'ktepa yodgorligi voha va dasht hududlari chegarasiga yaqin, tabiiy himoya imkoniyati zaif hududda joylashgan bo'lib, uzoq muddatli hayotni ta'minlash uchun mos kelmagani.

Joriy yil boshida Samarqandning tarixi, madaniyati, me'moriy va arxeologik yodgorliklarini o'rganish maqsadida hokimlik huzurida jamoatchilik kengashi tashkil qilinib, tarixchi va arxeolog olimlar bu masalani chuqurroq o'rganishga jalb etildi. Afrosiyob yodgorligining bir necha nuqtasida, jumladan, ark va shahriston qismida, ya'ni mudofaa devori yaqinida keng ko'lamdagi qazuv ishlarini olib borildi.

Qazishmalar davomida Ark hududidan miloddan avvalgi VII-VI asrlardan tortib XII asrgacha bo'lgan davrlarga old buyumlar qoldiqlari hamda mudofaa devori tagidan chiqqan qatlardan sopol parchalari, hayvon suyaklari kabi arxeologik materiallar topildi. Shundan keyin o'sha hududdagi 7 metr dan ziyod chuqurlikda miloddan avvalgi VII - IV asrlarga mansub murakkab mudofaa tizimi arxeologlar tomonidan o'rganildi. Mutaxassislar qat'iy xulosasi shuki, miloddan avvalgi I ming yillik boshlarida, ya'ni bundan 3000-yil oldin bu yerda shahar hokimi qarorgohi va ibodatxonani o'z ichiga olgan yirik shahar shakllangan. O'z navbatida, ana shu xulosalarni tasdiqlaydigan arxeobotanik va arxeozoologik topilmalar Fransiya, Germaniya va Yaponiya laboratoriyalariga tahlil uchun jo'natildi.

Shu nuqtayi nazaridan, mutaxassislar tomonidan miloddan avvalgi XI-X asrlarda Zarafshon daryosining o'rta qismida shakllangan shahar markazi avval Ko'ktepa hududida joylashgani, keyinchalik esa Afrosiyob platosiga ko'chirilgani va istiqbolda yana shu yerda Samarqand nomi bilan mashhur bo'lgan shahar shakllangani e'tirof etilmoqda. Qadimgi shahar funksiyalarining uzluksizligi va hududiy transformatsiyasi tahlildan kelib chiqqan holda Samarqandning rasmiy yoshi kamida 3000-yilga borib taqalishini ta'kidlash mumkin. Bu ko'hna tarixning yangroq sadosidir.

Hozirgi kunda ushbu ilmiy ma'lumotlar dastlab viloyat jamoatchilik kengashida ma'qullandi, shu

bilan birga, O'zbekiston Fanlar akademiyasi olimlari, Madaniy meros agentligi qoshidagi ilmiy kengash a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlanib, ularning ijobiy xulosalari olingdi. Barcha ilmiy ma'lumotlar, mutaxassislar xulosalari jamlanib, hozirgi kunda ko'rib chiqish uchun YUNESKOga taqdim qilingan.

Ma'rifat yog'dusi

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, qadimdan dunyoning turli burchaklarida yashayotgan ne-ne odamlar Samarqandni bir bor ko'rishni, uning muqaddas tuprog'ini o'pib, ko'ziga surtib, aziz-avliyolarning abadiy qo'nimgohlarini ziyorat etishni orzu qilgan, buni ulug' sharaf deb bilgan. Ilm olishni, ma'rifatni bo'lishni istagan insonlar dunyoning eng bebaho kutubxonalarini bor, eng mashhur madrasalar, allomalar yurti bo'lgan Samarqandga intilgan. Samarqanddan taralgan ma'rifat yog'dusi qablarni yoritgan, ko'ngillarga nur va harorat bergan.

Bugun ham jahonda azim shaharning nufuzi tobora ortib borayotganidan cheksiz xursand bo'lamiz. Samarqand 2019-yilda Jahon sayyohlik shaharlari federatsiyasiga a'zo bo'lgani ham ko'p narsani anglatadi. Ushbu qadim kent inson o'z umri davomida albatta borib ko'rish kerak bo'lgan 50 ta shahardan yurti bo'lgan Samarqandga intilgan. Samarqandning tarixiy-madaniy rivojlanish masalalari maxsus loyihalar sifatida jahonning qator yetakchi ilmiy markazlari - Oksford, Sarbonna, Bolonya, Vena, Ottava universitetlari va Rossiya Fanlar akademiyasi institutlarida tadqiqotlar olib borilmoqda. Samarqand davlat universitetida Samarqand tamadduni tarixi kafedrasini tashkil etildi.

Ulug' ajdodlar ruhi, buyuk o'tmishdan faxrlanish hissi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevga yanada mustahkam ishonch, kuch-qudrat va jasorat baxsh etdi. Matonatlari Alp Er To'ng'a, sohobqiron Amir Temur saltanatining mehvari bo'lgan Samarqand bugun yana mamlakatlarning oliy darajadagi yetakchilari maslahatlashadigan, o'zaro hurmat, ishonch, konstruktiv hamkorlik, inklyuzivlik prinsiplariga asoslangan, mintaqadagi xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlik masalalari muhokama etiladigan maskan sifatida xizmat qilmoqda.

Yaqinda O'zbekistonga tashrif buyurgan oliy darajadagi mehmon - Italiya Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi Jorj Meloni o'tmish va bugunni o'zida uyg'unlashtirgan, afsonalar shahri bo'lgan Samarqandning go'zal va mahobatli tarixiy

obidalarini, "Boqiy shahar" majmuasini, shaharda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarini hayrat bilan tomosha qildi, katta taassurotlar bilan yurtiga qaytdi. Va Prezident Shavkat Mirziyoyevga yo'llagan maktubida O'zbekistonga tashrifi haqida to'xtalarkan, Samarqanddek tarixi boy va mo'tabar shaharni ko'rish baxtiga muyassar bo'lganidan minnatdorligini ta'kidladi:

"Hurmatli Prezident janoblar!
Menga va men boshchiligidagi delegatsiyaga O'zbekistonga so'ngi tashrifim chog'ida ko'rsatilgan samimiy qabul uchun Sizga samimiy minnatdorlik bildiraman. Ayniqsa, Samarqand kabi tarixi boy va ming yillik madaniyat timsoli bo'lgan shaharning go'zalligini o'z ko'zim bilan ko'rish baxtiga musharraf bo'lganimdan juda mamnunman. Bu imkoniyat Siz va o'zbek xalqi tomonidan ko'rsatilgan buyuk mehmondo'stlik tufayli amalga oshdi..."

Turkiy davlatlar tashkiloti davlat rahbarlarining yig'ilishida Samarqand shahri "Turkiy sivilizatsiya poytaxti" deb e'lon qilingani ham bejiz emas. Ushbu azim shaharda ro'y berayotgan olamshumul o'zgarishlar, dunyo mamlakatlari rahbarlari ishtirokida o'tkazilayotgan oliy darajadagi uchrashuvlar, xalqaro simpozium va sammitlar ona sayyoramiz taqdirini hal qilishda uning nufuzini bugun yana osmon qadar yuksaltirmoqda, dunyo madaniyati markazi sifatidagi mavqegini qayta tiklamoqda. Albatta, davlatimiz rahbari tomonidan bu mashaqqatli va xayrli ishlarini amalga oshirishning o'zi bo'lmayapti.

Vatan mustaqilligini mustahkamlash, uni ko'z qorachig'iday asrash, sha'n-shavkatini yuksaltirish, munosib turmush tarzi, farovon hayot qurishdek ulug'vor ishlar silsilasida tarixiy adolatni qayta tiklash, shonli o'tmishni chuqur o'rganish va targ'ib qilish orqali xalqning milliy g'ururini yuksaltirish, ruhini yanada o'stirishga urg'u qaratilmoqda. Uchinchi Renessans poydevorini yaratish, yangi O'zbekistonda bunyod etishga xizmat qilayotgan bunday o'zgarishlar xalqimizga ishonch va umid bag'ishlamoqda. Olimlarimiz tomonidan Samarqand shahrining tarixi bundan uch ming yil oldingi davrlarga tutashishi ilmiy jihatdan isbotlangani bu boradagi ishlarning mantiqiy davomidir. Bu har birimizga katta quvonch, yuksak faxr-iftixor baxsh etadi.

Nurullo OSTONOV,
Abdulaziz YO'LDOŠEV
("Xalq so'zi").

XONOBOD JAHON AHLINI CHORLAMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 2-3-iyun kunlari Andijon viloyatiga tashrifi chog'ida Xonobod shahrini Farg'ona vodiysidagi yirik sayyohlik markazlaridan biriga aylantirishga qaratilgan aniq topshiriqlar bergan edi. Bugun mazkur ko'rsatmalar

asosida Xonobod shahri tom ma'noda qayta qad rostlamoqda. Dengiz sathidan 850 metr balandlikda joylashgan, musafiro havosi va go'zal tabiati bilan mashhur maskan nafaqat mahalliy, balki xorijiy sayyohlarni ham o'ziga jalb qilmoqda.

Shaharda turizmni rivojlantirish bo'yicha ham keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 3 ta yirik dam olish oromgohi, 11 ta turistik maskan, 5 ta sport inshooti, 830 ta dala hovli, "Fozilmon ota" ziyoratgohi mavjud bo'lib, 88 turdan ortiq noyob manzarali daraxtlar parvarish qilinayotir. Ziyorat, tibbiyot, eko, sport va gastroturizm hamda oilaviy klasterlar faoliyat yuritmoqda. Baliqchilikka ixtisoslashtirilgan "Afsona" oromgohi, milliy taomlar bilan mashhur "Anhor" choyxonasi, qirg'iz xalq taomlari tortiq etiladigan "O'tov" dam olish maskani, "Xon-tog" adirligidagi tibbiy sanatoriylar buning isboti. Har yili o'tkazilayotgan "Dunyo sadolari" xalqaro estrada festivali esa hududga yangi mazmun baxsh etmoqda.

Shu yil 15 - 17-avgust kunlari ushbu festival uchinchi marta bo'lib o'tadi. Ayni kunlarda unga tayyorgarlik ishlarini jadal ketayotir. Xususan, "Kampirovot" MFYdagi foydalanilmayotgan hududdagi 97 gektar maydonda yangi dam olish

Sayyohlik

maskani barpo etilmoqda. U 27 ta lotga bo'lingan bo'lib, tarkibi 25 gektarlik sun'iy ko'l, 3 ta ochiq plyaj va akvapark, 8 ta 100 o'rinli apart-otel, bitta 200 o'rinli mehmonxona, savdo-ko'ngilochar markazi, sport va aholi dam olish maskanlaridan iborat.

Manzilda ichimlik suvi ta'minotini yo'lga qo'yish maqsadida bir kilometrlik masofaga quvur tortish ishlarini bajarildi, har bir obyektga suv jo'mraklari olib kiritildi, - deydi "Andijon suv ta'minoti" AJ bosh muhandisi Humoyun Alimov. - Bu bilan nafaqat festival doirasida, balki yilning istalgan paytida sifatli suv ta'minoti yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, 2 kilometr dan ortiq yo'lga asfalt yotqizildi. Yuzlab temir-beton ustunlar o'rnatilib, hudud yoritish tizimi bilan ta'minlandi. Noyob daraxt va manzarali butalar, gul ko'chatlari ekildi.

"Dunyo sadolari" festivali nafaqat san'at bayrami, balki turistik salohiyatni namoyon etadigan,



madaniyat, hunarmandchilik va gastronomiyani qamrab olgan kompleks jarayondir, - deydi viloyat hokimligi mas'ul xodimi Rustamjon Eshonov. - Boisi tadbir bahona savdo, xizmat ko'rsatish, ovqatlanish, transport xizmatlari faoliyati yanada kengayadi. Qolaversa, mahalliy hunarmandlar, sport maktablari, yoshlar markazi, madaniyat bo'limlari xodimlari ham bu yerda o'z xizmatlarini taqdim etib, tadbirning ko'ngilli o'tishiga munosib hissa qo'shmoqda.

"Dunyo sadolari" orqali Xonobod nafaqat go'zal tabiati va tinch muhiti, balki yangi turizm modeli, zamonaviy infratuzilma, milliy meros va xalqaro aloqalar bilan dunyoga yuzlanmoqda. Unga sarflanayotgan mablag'lar kelajakdagi turistik xazinaning poydevori bo'ladi, desak, mubolag'a emas.

Saminjon HUSANOV
("Xalq so'zi").



IJOD — QUDRATLI KUCH

Ajoyib zamonlarni boshdan kechirmoqdamiz. O'zimizga boqsang — quvonasan, olamga boqsang — kuyunasan. Dahshatli tahlakalar seni qinyaydi... Vatanimizda dunyoning boshqa xalqlari havas qilsa arziydigan manzaralar namoyon. Yangi O'zbekiston bunyod bo'lmoqda, misli ko'rilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Islohotlar iqtisodiyotidagina emas, ijtimoiy hayotimizning barcha sohasida olib borilmoqda.

Shunisi quvonchli! Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning buyuk islohotchi ekani olamda tan olinmoqda. Ommaviy axborot vositalarida "O'zbekistondagi iqtisodiy parvoz" (ekonomicheskii bum!) haqida yozadigan bo'lib qolishdi. "Markaziy Osiyo yo'lbarisi" deb ham atashmoqda. Barchasi Shavkat Miromonovichning bemisil quvvat hofizasi, ajoyib tashkilotchilik salohiyati tufayli yuz bermoqda.

Buyuk tarixchimiz Sharafuddin Ali Yazdiy o'z "Zafaroma" asarida Amir Temurning Vatan hayotida el og'irini yengillatish uchun bog' qilish, obod etish yoki yo'l solishga kichikina bo'lsa ham, imkon tug'alsa, o'shandan darhol foydalanishi haqida shunday so'zlarni keltirgan edi: "Sohibqiron har yerdakim, imoratga qobil yer ko'rsa erdi, ul yerda albatta bir imorat solur erdi". Bu bilgan odamga, albatta, katta ibrat, tarixiy tajriba. Har qanday imkondan foydalanish lozim.



Muhammad ALI, O'zbekiston xalq yozuvchisi.

Prezidentimiz ham o'zining hayotbaxsh da'vatlari bilan xalqimizning tomirlarida uxlab yotgan shijoatini uyg'otishga bel bog'lagan. Uning yo'l-yo'riqlari, dono maslahatlari yurtdoshlarimizni muvaffaqiyatlarga chorlamoqda, ilhomlantirmoqda. Shavkat Miromonovich ulug' shoir Abdulhamid Cho'ponning "Xalq" nomli she'rida yozgan: "Butun kuchni xalq ichidan olaylik, Quchoq ochib xalq ichiga boraylik" degan shiddatli so'zlarini dasturlamal bilib, bir kun Xorazmda bo'ladi, boshqa kun Andijonda, keyin Qoraqalpog'istonda, Buxoroda, Jizzaxda... islohotlar bilan tanishadi, quchoq ochib xalq ichiga boradi, odamlar bilan uchrashadi, barchasini ruhlantiradi, ularning dardlarini tinglaydi, tinglab butun kuchni xalq ichidan oladi. U biladi: "Xalq ertaga emas, balki bugun yaxshi yashashni istaydi!"

Bunday fidoyilik izsiz ketmaydi. Prezidentimiz uzoqni ko'ra bilish salohiyati, zukkoligi tufayli yurtga investitsiyalar oqib kelmoqda, qishloq obod bo'lmoqda, shaharlar ko'rkamlashib kengaymoqda, yangi shaharlar bunyod bo'lmoqda (masalan, Yangi Toshkent), muhtasham binolar qad ko'tarmoqda, yangidan-yangi korxonalar ish boshlamoqda. Birgina mahobatli O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi majmuasining qurilishi qanchalar hayratlanarli!

Bir misol aytay: Prezident Shavkat Mirziyoyev yaqinda Andijon viloyatini rivojlantirish bo'yicha yangi rejalar bilan tanishdi. Davlat rahbarining Matbuot xizmati xabariga ko'ra, O'zbekiston hozir Germaniya, Italiya va Yaponiya robot texnologiyalari investorlarini jalb etmoqda, maqsad — Andijonda yuqoridagi mamlakatlar robot texnologiyalari asosida zamonaviy klinika bunyod etishdan iborat. Buning uchun 40 mln. dollar ajratiladi. Umuman, joriy yilda 3,1 mlrd. dollar sarmoya jalb etiladi, 1,5 mlrd. dollarlik mahsulot eksport qilinadi. 305 ming kishi ish bilan ta'minlanadi, 32 mingdan ortiq oilalar kambag'allikdan chiqariladi. Bu hazilakam ish emas!

Mamlakatda odamlarning daromadi oshib bormoqda, va iqtisodiyotimizning katta rivojlanishi yo'lga kirganidan dalolat.

Sportning barcha sohasida ulkan yutuqlar qo'lga kiritilmoqda. O'zbek boks jahonda birinchi! Bir narsaga e'tibor berdim: yosh sportchilarimiz, bokschilarimiz ham xalqaro musobaqalarda birinchi! qo'ldan bermay kelmoqda... Shaxmat, dzyudo va boshqa sohalarda ham o'zbek o'g'il-qizlari chempionlik unvonlariga ega chiqmoqda. Askarlarimiz-chi? Amerikada o'tkazilgan xalqaro harbiy musobaqada mezbon harbiylarni ham ortda qoldirib g'olib bo'lganiga nima deysiz? Futbolchilarimiz ilk marta 2026-yilda bo'lib o'tadigan jahon chempionatida qatnashish huquqini qo'lga kiritganiga-chi? Hammasi quvonarli voqealar!

Darhaqiqat, biz ertasiga ishonch bilan qaragan xalqimiz, maqsadimiz ulug'. Shuning uchun ijtimoiy hayotimizning barcha sohasida birov havas qilsa arziydigan, maqtansak yarashadigan zafarlarimiz, muvaffaqiyatlarimiz Xudoga shukr, ko'p.

Prezidentimiz ma'naviyat va ma'rifat sohasiga ham doim g'amxo'rlik qilib keladi, bu tizimlar hamisha u kishining nazar-e'tiborida. Kitob mutolaasi borasidagi qaror juda ko'p yoshlarimizni kitoblarga qarashga, o'qishga undab kelmoqda. Yoshlar minnatdor! Axir kitobni maza qilib o'qisang, zavq olsang... evaziga yana yengil mashina bilan ham mukofotlansang!.. Bu qaysi mamlakatda bor?

Lekin... Lekin, ochig'ini aytilish kerak, kishini o'ylantirib qo'yadigan tashvishlar, holatlar ham yo'q emas... Zamon juda murakkab, tobora taranglashish harakatida... Bunday davrda har kimning o'z oldidagi mas'uliyati kuchaygan holda yurtimiz ertasi, bolalar, farzandlar taqdiri uchun javobgarlik hissi o'n chandon ortishiga shubha yo'q. Aslida, barchamiz jamiyatimiz uchun mas'ulmiz. Ma'naviy turmushimizda tashqi olam ta'siri tobora ortib

Mushohada

borayotganini ko'rib turibmiz. Internet, telefon-telegram deganday, mana endi sun'iy zako (intellekt) ham chiqdi. Yana yangilari paydo bo'lishi, bu jarayonning yanada chuqurlashib borishi tabiiy hol. Hozir har bir xonadonga kirsangiz, kamida besh-oltita telefon mavjudligini ko'rasiz. Nabiradan bobogacha har kim o'z telefoni bilan mashg'ul. Ko'cha-ko'ya yurganda ham, ovqatlanayotganda ham, gaplashganda ham odamlar telefonga tikilib o'tirishadi. Qaysi kuni idoralardan biriga rahbar

“Adabiyot — katta kuch. U tabiatdan barchaga tegishli — lirikka ham, fizikka ham. Chunki adabiyot — ko'ngil fani, ko'ngil esa hammada mavjud...”

huzuriga kirdimu hayron bo'lib chiqdim. Men bilan suhbatlashar ekan, rahbarning bir ko'zi va bir qo'li oldida turgan telefonidan uzilmadi... Xayoli o'shanga chalg'ib turdi.

Ayrim G'arb mamlakatlarida, telefon ishlab chiqariladigan yurtlarda, o'quvchilarning maktablarga faqat telefonsiz kirishlari qat'iy qilib qo'yila boshlandi. Bu yaxshi chora, deb qaralishi kerak.

Aslini olganda, internet, telegram, e-mail insonga katta naf keltiradi, foydasi ko'p, buni tan olmoq kerak. Dunyodan boxabar bo'ladi kishi. AQShda safarda bo'lgan vaqtlarimda odamlarning ruhan yolg'iz ekanliklarini ko'rdim. Ularning birdan-bir do'sti, yaqin sirdoshi — kompyuter (internet). Birov bilan insoniy suhbat qurish ishtiyoqi ularida deyarli yo'q darajada, asosan, internet orqali gaplashishadi. Bu, afsuski, insonni xudbinga aylantirib, yolg'izlatib qo'yadi.

Internetdagi voqealar ataylab odamning es-hushini o'g'irlaydigan darajada namoyish qilindi. Axloqsizlik, uyatsizlik, sharm-hayotning payhon bo'lishini ko'rsatadi. Bu narsa, ayniqsa, yoshlar uchun xavfli. Yoshlikdan ma'naviy qashshoqlikka duchor bo'lgan murg'ak ong-tafakkurlar xaza tortadi...

Ota-onaga hurmat, oqibat, ezigulik, mehribonlik, odamiylik kabi urf-odatlarimizga zarba beradi,

qadriyatlarimiz asosini asta-asta yemirib boradi. Bunga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Noxush jihati, internetdagi bunday holatlar ijtimoiy hayotimizga, turmush tarzimizga ko'chib o'tib, televideniye, adabiyot va kino asarlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu kishida tashvish tug'diradi.

Tashqi ta'sirlar — xuddi olisdan esgan bo'ronday chegara bilmaydi, yurtga bostirib kelaveradi. G'oyaviy xurujlar eng birinchi galda ma'naviyatimizga, ruhimizga ta'sir qiladi, hushyor aqlarni chalg'itadi. Biz ana shundan ehtiyot bo'lishimiz kerak. Bunga qanday chora topish bizlarni o'ylantirishi zarur.

Bu yerda bizga, albatta, adabiyot va uning katta qurolli bo'lgan kitob yordamga keladi. Kitob — xayol, kitob — olam, kitob — borliq...

Tarixda adabiyot hamisha xalqni ruhlantiruvchi, uning quvonchu dardlarini ifoda etguvchi, xalq ko'kragini ko'targuvchi buyuk kuch bo'lib kelgan. Masalan, XIX asr — fransuz, ingliz va rus adabiyotlari uchun ulkan parvoz davri bo'ldi. Adabiyot o'sha millatlarning teran ma'naviy hayoti ko'zligiga aylandi, xalqning yoniga kirdi, ko'nglidan joy oldi, dardlariga malham bo'ldi.

Adabiyot — katta kuch. U tabiatdan barchaga tegishli — lirikka ham, fizikka ham. Chunki adabiyot — ko'ngil fani, ko'ngil esa hammada mavjud...

Hayratlanarli hodisa: Xudoi taolo bandalar uchun osmondan tushirgan birinchi qadriyat kitobdir. Ilk nozil bo'lgan oyat "O'qil" deb boshlanishi ham bejiz emas. Demak, asosiy vazifa belgilab qo'yilgan: kitob o'qishimiz kerak!

Prezidentimiz ma'naviyat sohasiga, adabiyotga juda katta e'tibor berib kelmoqda. Lekin biz buning qadriga yetayotirmizmi, qutlug' da'vatlarga "labbay!" deb javob beryapmizmi?

Mana qarang: yozuvchilarning yashash shart-sharoitlarini yaxshilash, uyushmaning ma'muriy binosini, ijod uylarini qurish ishlari a'lo darajada ado etildi. Ko'plab kitoblar nashr qilinmoqda, taqdimotlari o'tkazilmoqda. Faqat yangi kitobga bag'ishlangan bu taqdimotlar, kitob qolib, asosan, muallifga hamdu sano o'qishlarga aylanib ketmoqda. Holbuki so'z, paydo bo'lgan yangi asar kitob haqida bo'lishi joiz. Yangi kitobni targ'ib etmoq kerak, toki uning mazmun-mohiyati kishilarga yetib borsin. Targ'ibot — katta masala. Har bir taniqli ijodkorga (shoir, adib va hokazo) bag'ishlab alohida-alohida mazmunli va ibratli ko'rsatuvlar tayyorlanishi kerak, toki

Yuqorida aytganimizdek, adabiyot — ko'ngil fani. U dillarni allalaydi, ruhlarni ma'naviy poklantiradi. Adabiyotni sevaylik, qadriga yetaylik! Shunda ma'naviyatimizni asragan bo'lamiz.

Mutolaa ADIBNING OSHIQ'ICH KO'NGIL IZHORI



O'zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A'zamning "Tanlangan asarlar"ning beshinchi jildi nashr etildi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida chop qilingan kitobga adibning publitsistik asarlari jamlangan.

Fiqralar, har xil dolzarb mavzulardagi maqolalar, safarnomalar, adabiy qaydlar, atoqli ijodkorlar haqidagi portretlar, xotiralar, suhbatlar... Turli yillarda gazeta va jurnallarda bosilgan bu bitiklar nari-beri qirg' yillik ijodiy izlanishlar mevasi, ijodkorning adabiy qarashlari, voqea-hodisalarga o'ziga xos munosabati, jamiyatga uyg' oq nigohi, bedor qalb kechinmalari ifodasidir.

Erkin A'zam "Yozuvchining chinakam tarjimai holi uning asarlarida aks etadi", deb yozganida g'oyat haq edi. Albatta, yarim asrdan ortiq vaqt davomida ijod qozonida qaynayotgan adibning xalqimiz ma'naviy mulkiga aylangan roman, qissa va hikoyalardan iborat o'ndan ortiq kitoblari, yigirmaga yaqin ekran hamda sahna asarlari uning badiiy tafakkuri qudratini ko'rsatib qolmay, hayotdagi qadriyatlarini, o'zi tayanadigan g'oyalari, tutumlari, insonga, borliqqa, azaliy va abadiy tushunchalarga munosabatini ham namoyon etadi.

Lekin publitsistika — chinakam hayot va jamiyat ko'zligi. Unda voqelik xayolot va hayajon uyg'unligida emas, haqqoniylik, xolislik prizmasidan o'tkazib tasvirlanadi. Real hodisalar, muammolar va ularning yechimlari haqida so'z yuritiladi. Shu ma'noda, "Tanlangan asarlar"ning beshinchi jildiga kiritilgan ijod namunalari yozuvchining hayotidan, yaxshi va yomon kunlaridan, o'y-fikrlaridan, orzu-armonlaridan so'zlaydi. Erkin A'zam kim va qanday ijodkor degan savollarga javob bo'ladi.

Masalan, kitobdagi "Xalqimga bergani — menga bergani" sarlavhali fiqri o'zaro. Yigirma birinchi asr ostonasida chop etilgan ushbu qaydlar muallif "Umr atalmish g'animat bir ne'matni ayovsiz yemiradigan har turli bid'atlardan, taraqqiyotimizga tushov solayotgan o'jar mahdudliklardan dadil voz kechib, dunyoning yurak urishiga sinchkovroq quloq tutaylik. Yangi zamon yangilanishni taqozo etadi", deb yozadi. Jumlar mohiyatidan uning kuyunchakligini, eziguliklarga esh, toza tabiatini anglash mumkin.

Ana shunday fikrlarni "Buyuk umidlar pallasini", "Vatan qanday yuksaladi", "Inson o'zing...", "Shoshmasdan shoshiling" va boshqa shu kabi fiqrlar haqida ham aytish mumkin. Ularda o'z manfaatidan xalq manfaatini ustun qo'yish, vatanparvarlik, fidoyilik bilan yashash, istiqbolga ishonch, bunyodkorlikka da'vat ruhi ustuvor.

Adib "Boy bo'layin desangiz...", "Yuzga kirish... shartmi?", "Yat bo'ladi", "Kitob urmasin", "Jannat qidirib...", "Shukru qanoat", "Savobning yo'li — pinhona" va boshqa fiqrlarida ham hech qachon eskirmaydigan tuyg'ular, tushunchalar, fazilatlar haqida so'z yuritgan. Ayrim insonlar fitritadagi qusurlarni, fe'lu sajiyasidagi nuqsonlarni tanqid qilgan.

Kitobga kiritilgan "Dohiyarastlik dardi", "Kulgidan yig'i chinroq", "Eski og'izdan yangi aldov", "Tilda emas, dilda bo'lsin" kabi maqolalarda ham turli ijtimoiy muammolar ko'tarilgan bo'lib, ular bugungi kunimizga ham daxldor. Zero, muallifning o'zi ta'kidlagandek, kitobga materiallarni saralash chog'ida yarim asrlik bisotidan kundalik matbuot nafasi gupurib turganlaridan voz kechilib, bugungi muammolarga eshroq tuyulgan matlar ajratib olingan.

Erkin A'zam "Yozuvchi mardum o'zidan ortganda", ko'nglidagini oshig'ich izhor etish ehtiyoji paydo bo'lganda publitsistikaga qo'l uradi" der ekan, mazkur kitobga ham ma'lum ma'noda baho bergan. Demak, ushbu saylanma ko'ngil ehtiyoji o'laroq dunyo yuzini ko'rgan asarlar jamlamasidir.

"Xalq so'zi".

Ma'naviyat

YOSH KITOBXONLARGA TUHFA

Vobkent tumanidagi So'fidehqon mahallasida qad rostlagan shinamgina binodan qishloq o'g'il-qizlarining qadami uzilmaydi. Peshoqqa "Yoshlar kutubxonasi" yozuvi tushirilgan bu maskan kitobsevar bolalarga yozgi ta'tilni mazmunli o'tkazish imkoniyatini yaratdi.



— Mazkur ziyo maskani Vazirlar Mahkamasining "2020 — 2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida barpo etildi, — deydi tuman hokimligi matbuot xizmati rahbari Shuhrat Sharipov. — 950 million so'm miqdoridagi mablag' evaziga qad rostlagan go'sha uch mingta kitob fondiga ega. Unda "Ibrat farzandlari" chet tillarini o'rganish xonasi, o'quv zali, shaxmat-shahka xonasi ham mavjud. Maskan zamonaviy axborot texnologiyalari bilan jihozlangan.

E'tiborlisi, bu yerda so'fidehqonlik ziyolilarni ham tez-tez uchratish mumkin. Ulardan biri — tajribali pedagog R. Eshonova.

— Kitob inson baxtu saodati kalitidir, — deydi u. — Farzandini kitobga oshno etgan hech bir oila yutqazmaydi. Shu nuqtayi nazardan, mahallamizda bunday zamonaviy kutubxonaning barpo etilgani ayni muddao bo'ldi. Vaqti-vaqti bilan bu yerga kelib, qishloqimiz o'g'il-qizlarining qanday kitoblarni o'qiyotgani bilan qiziqaman, ularga tavsiyalar beraman.

Istam IBROHIMOV ("Xalq so'zi").



Germaniyaning Zigen shahridagi Xalqaro tillar institutida "O'zbekiston kechasi" o'tkazildi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 642, 13 107 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.

Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va ummulligiga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazilishi uchun oshimani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahriyriyat kompyuter markazida terildi. Hunda operator M. Begmatov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzil:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 21.50 Topshirildi — 23.55 **1 2 3 4 5 6**

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbachi muharrir H. Qarshiyev.
Musahhib S. Islomov.